

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi tomonidan
2025-yilning I yarim yili davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida
MA'LUMOT

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasining hujjatlaridagi topshiriqlar, shuningdek, Agentlikning **2025-yilga** mo'ljallangan ish rejasida belgilangan vazifalar ijrosi bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan,

I. "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2025-yil "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturining ijrosini ta'minlash maqsadida Agentlikning **2025-yil 10-fevraldagi 11 a-sonli buyrug'i** qabul qilindi.

Davlat dasturi ijrosini tashkil etish bo'yicha Farmonda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, **Agentlik mas'ul bo'lgan bandlarga joriy yilning 12 fevral kuni (2025-PF-16-son) nazorat reja ishlab chiqilib**, buyruq va nazorat rejadagi bandlar "**edo.ijro.uz**" elektron **tizimi orqali** ijroga qaratildi.

Mazkur Farmonda **milliy kinematografiyani keng targ'ib qilish hamda dunyodagi eng ommabop internet platformalariga milliy filmlarni joylashtirish** bo'yicha belgilangan vazifa ijrosi doirasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

a) nufuzli, reytingi baland xalqaro onlayn platformalarning talablariga mos ravishda davlat buyurtmasi asosida **"Va'da", "Qutqaruvchi" ("Uzilgan gulim"), "Adolat", "Umida" (Fudziyama haqida tush), "Uyga qaytish", "Bir kuni Samarqandda", "Daydi shamol" va "Cho'liq"** nomli **8 ta badiiy film ishlab chiqilib**, 2025-yilning mart-iyun oylarida **namoyishlari tashkil etildi**;

"Mening mahallam", "Amaliyotchi qiz", nomli badiiy filmlar ishlab chiqarildi, mazkur filmlar taqdimotiga tayyorgarlik ko'rilmogda;

b) joriy yilning **fevral-may oylari davomida dunyodagi eng ommabop internet platformalariga 4 ta milliy filmlar joylashtirildi**. Xususan:

joriy yilning **I choragida "Ajiniyoz"** o'zbek milliy badiiy filmi dunyodagi eng ommabop **(Megogo), (YouTube), (Etnomedia TV), (Allplay)** kabi onlayn platformalariga;

joriy yilning **II choragida "Ilxaq", "Maxtumkuli" va "Vatan ostonasi"** o'zbek milliy badiiy filmi dunyodagi eng ommabop **(Megogo), (YouTube), (Etnomedia TV)** kabi onlayn platformalariga joylashtirildi;

v) joriy yilning **I va II choraklari davomida jahonning eng nufuzli 7 ta xalqaro kinofestivalida o'zbek kinoijodkorlarining ishtiroki ta'minlandi**. Jumladan:

"Yakshanba" filmi **Bangladeshda** bo'lib o'tgan **Dakka Xalqaro kinofestivalining** Osiyo filmlar tanlovida **"Eng yaxshi film"** mukofotiga hamda **Hindistonda** bo'lib o'tgan **Eikhoigi Imphal Xalqaro kinofestivalida "Hakamlar hay'atining maxsus mukofoti"**ni qo'lga kiritdi;

Hindistonning **GOA** shahrida bo'lib o'tgan xalqaro kinofestivalda **"House"** badiiy filmining ishtiroki ta'minlandi;

*Agentlik buyurtmasiga asosan suratga olingan rejissyor Abdulatif Haydarov tomonidan yaratilgan **"Buyuk Ipak yo'li bo'ylab sayohat"** hamda **"To'maris"** nomli animatsion filmlar Hindistonning Noida shahrida bo'lib o'tgan xalqaro **"Global Festival of Journalism & AVGC"** kino-festivalida **"Mukammallik uchun"** nominatsiyasi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritdi;*

Turkmanistonda o'tkazilgan **IV "Qo'rqut ota"** kinofestivalida Muzaffarxon Erkinovning **"Maxtumquli"** tarixiy-badiiy filmi **"Eng yaxshi film"** nominatsiyasida **"Gran-Pri"** va rejissyor Nurulla Narzullaevning **"Oy borib, omon qaytganlar"** hujjatli filmi kinofestivalning maxsus mukofoti bilan taqdirlandi;

joriy yilning **5-9-mart** kunlari **Rossiya Federatsiyasining Xanti-Mansiyskiy shahrida** bo'lib o'tgan **XXIII-Dux ognya kinodebyut Xalqaro Kinofestivalida** "O'zbekfilm" direktori boshchiligidagi O'zbekiston **delegatsiyasi ishtiroki ta'minlandi;**

joriy yilning **13-24-may** kunlari **Fransiyaning Kann shahrida** o'tkazilgan **78 Kann xalqaro kinofestivalida** hamda joriy yilning **1-4-may** kunlari **Hindistonning Mumbay shahrida** o'tkaziladigan **Waves (Butunjahon audiovizual ko'ngilochar) sammitida** **O'zbekiston delegatsiyasi ishtiroki ta'minlandi;**

joriy yilning **11-15-iyun** kunlari Qirg'izistonning Bishkek shahrida **130 dan** ortiq davlatlar ishtirokida bo'lib o'tgan xalqaro kinofestivalda Agentlik direktori o'rinbosari Alisher Xadjaev boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi ishtiroki ta'minlandi hamda **"Bahorni quvib"** badiiy filmining **maxsus taqdimoti o'tkazildi;**

g) Harbiy-vatanparvarlik mavzusida Ichki ishlar vazirligi bilan hamkorlikda **"Uch qahramon"** nomli badiiy film yaratildi;

Ichki ishlar xodimlarining fidoiyligi haqida hikoya qiluvchi **"Hudud"** nomli badiiy film hamda milliy ozodlik va vatan himoyasi yo'lida jon fido qilgan qahramonlar jasorati haqida **"Hayot akademiyasi"** nomli badiiy-publitsistik filmlar ishlab chiqarishga tushirilib, mazkur filmni suratga olish ishlari yakunlanmoqda;

Shu bilan birga ikkinchi jahon urushida qahramonlik ko'rsatgan vatandoshimiz **Mamadali Topvoldievning jasorati haqida hikoya qiluvchi "O'zbek arsloni"** tarixiy badiiy filmi **Belarus Respublikasida suratga olindi.** Ayni damda filmning ijodiy ishlari amalga oshirilmoqda.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda o'tgan davr mobaynida **milliy qahramonlar haqida hikoya qiluvchi quyidagi** multiplikatsion film va seriallar ishlab chiqarildi:

joriy yilning **I choragida "Beruniy sarguzashtlari"** va **"Ahmad al-Farg'oniy"**;

joriy yilning **II choragida "Shiroq afsonasi", "Abu Rayhon Beruniy"** va **"Muso al Xorazmiy"**, 15 qismli (16-30) **"Musbatoy va Manfiybek"** nomli **multiplikatsion film va seriallar ishlab chiqarildi;**

milliy qahramonlar mavzusida “Buyuk bobolarim bolaligi”, “Spitamen”, “Aqli qizaloq”, “Chumchuqvoyning sarguzashtlari”, “Qimmat. Ertakning davomi...”, “Temurbekning bolaligi”, “Qo’zichoq va toychoq” nomli animatsion filmlar ishlab chiqarilmoqda;

davlat buyurtmasi asosida ishlab chiqilishi rejalashtirilgan “Hasanboy” nomli multiplikatsion serial hamda “Saxovat” nomli multiplikatsion filmlar o’tkazilgan tanlov natijasiga ko’ra g’olib deb topildi, shundan “Saxovat” nomli multiplikatsion film ishlab chiqarishga tushirildi.

Davlat dasturi ijrosi yuzasidan har oyning 25 sanasiga qadar Agentlik tomonidan amalga oshirilgan ishlar haqida 2025 yil 25-fevraldagi 01-05/04-395-sonli, 25-martdagi 01-05/04-665-sonli, 22-apreldagi 01-05/04-1037-sonli, 19-maydagi 01-05/04-1383-sonli va 16-iyundagi 01-05/04-1608-sonli **xatlar bilan Adliya vazirligi, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi, “Yuksalish” harakatiga va Madaniyat vazirligiga ma’lumotlar taqdim etib borildi.**

II. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 sentabrda “Strategik islohotlarni jadallashtirishning qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-216-son Farmoni ijrosi bo’yicha soha va tarmoqni isloh qilish bo’yicha Agentlik tomonidan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan aprel-iyun oylari davomida Prezident huzuridagi Strategik islohotlar agentligi *(25 apreldagi 01-05/04-1081, 20 maydagi 01-05/04-1392-son)* **va Adliya vazirligiga** *(25 apreldagi 01-05/04-1092, 20-maydagi 01-05/04-1405-sonli xatlar bilan)* **ma’lumotlar taqdim etib borildi.**

Xususan, soha va tarmoqni isloh qilish bo’yicha O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi **“Kinematografiya sohasini yanada rivojlantirish hamda mamlakatimiz tarixiga bag’ishlangan filmlar turkumini yaratishga doir chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-209-son qarori** ijrosi bo’yicha bir qator ishlar amalga oshirildi.

1. Tashkiliy chora-tadbirlar.

1) Kinematografiyani rivojlantirish va qo’llab-quvvatlash bo’yicha milliy komissiya hamda Filmlarning g’oyaviy-badiiy saviyasini oshirishga ko’maklashuvchi **milliy kengashning 2024-yilning 23-iyul kuni bo’lib o’tgan qo’shma majlisining. 65/1-son bayoni bilan “Tirik tarix” dasturidagi filmlarni ishlab chiqarish rejasi** hamda **“Tirik tarix” dasturiga kiritilgan filmlarni ishlab chiqarish bo’yicha tanlov o’tkazish tartibi to’g’risidagi nizom tasdiqlandi.**

2) Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-oktabrdagi “Kinematografiya sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida”gi 694-son qarori bilan quyidagilar tasdiqlandi:

Kinematografiyani rivojlantirish va qo’llab-quvvatlash bo’yicha **milliy komissiya to’g’risidagi nizom;**

Filmlarning g’oyaviy-badiiy saviyasini oshirishga ko’maklashuvchi **milliy kengash to’g’risidagi nizom;**

Xalqaro kinofestival va kino taqdimotlarida mukofotlangan **milliy filmlar** ijodkorlarini rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizom.

2. Amalga oshirilgan ishlar.

1) **"Tirik tarix"** dasturida **21 ta** badiiy, **33 ta** badiiy-publitsistik, jami **54 ta** kinoloyihani amalga oshirish nazarda tutilgan bo'lib, bugungi kunga qadar **"Tirik tarix"** dasturidan o'rin olgan **3 ta kinoloyiha**– **"Bahodir Yalangto'sh"**, **"Maxtumquli"**, **"Ajiniyoz"** filmlarining suratga olish ishlari yakunlanib, taqdimotlari bo'lib o'tdi, **9 ta film** – **Ulug' Amir va donna Mariya"**, **"Yulduzlar shu'lasi: Jomiy va Navoiy"**, **"Xiva langari"**, **"Abdulla Qodiriy"**, **"O'zbek arsloni"**, **"Mulla Nasriddin"**, **"Sakura ifori"**, **"Buxoro marvaridi"** (Agentlikning 2025-yil 2 apreldagi 41a-sonli buyrug'i asosida) va **"Sehrli ko'za"** (Agentlikning 2025-yil 30 maydagi 72a-sonli buyrug'i asosida) **filmlari ishlab chiqarishga tushirilgan**, shundan, **"Ulug' Amir va donna Mariya"** filmini ishlab chiqarish jarayonlari yakunlanmoqda;

2) Prezident qarori va unda belgilangan topshiriqlar ijrosini yuqori saviyada va sifatli ta'minlash maqsadida Kinematografiyani rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha **milliy komissiya** hamda Filmlarning g'oyaviy-badiiy saviyasini oshirishga ko'maklashuvchi **milliy kengash qo'shma majlisining 65/1-son bayoni** bilan tasdiqlangan **"Tirik tarix"** dasturiga kiritilgan filmlarni ishlab chiqarish bo'yicha tanlov o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq **2024-yilning 10-oktabridan 10-noyabriga** qadar tanlov e'lon qilindi.

Ushbu tanlovda **"Tirik tarix"** dasturidan o'rin olgan **13 ta** badiiy va **31 ta** badiiy-publitsistik, jami **44 ta kinoloyiha bo'yicha** (**"Guloyim va qirqqiz"**, **"Nur va ziyo"**, **"Farhod va Shirin"**, **"Al-Xorazmiy"**, **"Mirzo Ulug'bek"**, **"Shahobiddin Marjoniy"**, **"Maqsud Shayxzoda"**, **"Taqdir ufqlari"**, **"Erkin Vohidov"**, **"Botir Zokirov"**, **"Temurbeklar maktabi"**, **"Sehrli ko'za"** (bolalar uchun film), **"Sehrli nay"** (turkum), **"Shiroq"**, **"Afrosiyob"**, **"Buyuk ipak yo'li"**, **"Imom Buxoriy"**, **"Imom Moturudiy"**, **"Ahmad Yassaviy"**, **"Ma'mun akademiyasi"**, **"Yetti pir"**, **"Bibixonim"**, **"Klavixo"**, **"Temuriylar"** turkumi, **"Bobur va Boburiylar"**, **"Shayboniylar"** turkumi, **"Herman Vamberi va Mulla Is'hoq"**, **"Feruz"**, **"Xudoybergan Devonov va nemis mennonitlari"**, **"Buxoro marvaridi"**, **"Turkistonlik bahodirlar"**, **"Fayzulla Xo'jaev"**, **"Abdurauf Fitrat"**, **"Abdulvohid Burhonov - Munzim"**, **"Munavvarqori Abdurashidxonov"**, **"Ubaydulla Xo'jaev"**, **"Madaminbek"**, **"Cho'lpon"**, **"Usmon Nosir"**, **"Pomir tog'lariday yuksak"**, **"Navoiyshunoslar jasorati"**, **"Sharof Rashidov"**, **"O'zbek ishi"**, **"O'zbekiston arxeologik yodgorliklari durdonalari"** turkumi) sinopsislar (yaratiladigan filmning g'oyasi va umumiy syujetining qisqacha bayoni) qabul qilindi.

Mazkur loyihalar bo'yicha bir oy davomida tanlovga **123 ta** ariza kelib tushdi. Shundan **14 ta** loyiha tanlov shartlarini bajarmagani uchun tanlovdan olib tashlandi (**"Guloyim va qirqqiz"** 1 ta, **"Taqdir ufqlari"** 1 ta, **"Imom Buxoriy"** 2 ta, **"Yetti pir"** 1 ta, **"Bibixonim"** 1 ta, **"Bobur va Boburiylar"** 2 ta, **"Ahmad Yassaviy"** 1 ta, **"Ubaydulla**

Xo'jaev" 2 ta, "Usmon Nosir" 1 ta, "Munavvarqori Abdurashidxonov" 1 ta, "Cho'lpon" 1 ta sinopsisi tanlov shartlarini bajarmadi).

Shu bilan birga **"Afrosiyob", "Ma'mun akademiyasi", "Klavixo", "Abdurauf Fitrat", "Abdulvohid Burhonov - Munzim"** kabi jami **5 ta** loyihaga bittadan ariza kelib tushganligi, **"Feruz"** loyihasiga taklif kelib tushmaganligi, shuningdek, **"Ahmad Yassaviy"** loyihasiga kelib tushgan **2 ta** loyihaning bittasi tanlov talablariga javob bermagani uchun, ikkinchi loyiha esa bitta ishtirokchi qolganligi sababli tanlov o'tkazilmagan deb topildi.

3) Milliy kengash a'zolariga tanlov talablari asosida yozilgan **33 ta** kinoloyihaning **103 ta** sinopsisi yetkazib berildi.

Ma'lumot uchun: Kengash a'zolari tomonidan **"Nur va ziyo"** loyihasida nazarda tutilgan mavzu bo'yicha badiiy film yaratish bahsli, ziddiyatli vaziyatni yuzaga keltirishi ta'kidlanib, mazkur kinoloyihani **"Tirik tarix" dasturidan chiqarish va boshqa asar bilan almashtirish taklifi kiritildi.**

Kengash a'zolari ko'pchiligining taklifidan kelib chiqib, Filmlarning g'oyaviy-badiiy saviyasini oshirishga ko'maklashuvchi milliy kengash majlisining **2025 yil 7 yanvardagi 01-sonli bayoni qarori** bilan **"Nur va ziyo"** kinoloyihasi dasturdan chiqarilib, uning o'rniga **Davlatimiz Rahbarining 2024 yil 1 noyabr kuni Navoiy viloyatiga tashrifi doirasida o'tkazilgan yig'ilishda** Navoiy kon-metallurgiya kombinati va Navoiy viloyati hokimligi Kinematografiya agentligi bilan birgalikda Alisher Navoiy haqida kinofilm yaratish bo'yicha topshirig'idan kelib chiqib, **"Alisher Navoiy"** kinoloyihasi **"Tirik tarix" dasturiga kiritildi.**

4) Kengash a'zolari tomonidan ijobiy baholangan **13 ta** sinopsis (**5 ta badiiy, 8 ta badiiy-publitsistik**), ya'ni, **"Shahobiddin Marjoniy"** 1-nomzod (Shoim Bo'taev), **"Taqdir ufqlari"** 1-nomzod (Faxriddin Nizomov, Abduqayum Yo'ldoshev), **"Erkin Vohidov"** 1-nomzod (Dilshod Salomov), **"Temurbeklar maktabi"** 1-nomzod (Suhrob Qodirov), **"Shiroq"** 2-nomzod (Nazar Eshonqul), **"Buxoro marvaridi"** 1-nomzod (Husan Rashidov), **"Fayzulla Xo'jaev"** 1-nomzod (Zulfiqor Musoqov), **"Madaminbek"** 2-nomzod (Nurilla Narzullaev), **"Usmon Nosir"** 6-nomzod (Iqbol Qo'shshaeva), **"Pomir tog'lariday yuksak"** 1-nomzod (Shoim Bo'taev), **"Navoiyshunoslar jasorati"** 2-nomzod (Lola Fattoeva), **"O'zbekiston arxeologik yodgorliklari durdonalari"** 2-nomzod (Saida'loxon Masudxonov), **"Sehrli ko'za"** 2-nomzod (Bobur Hamroev) va 3-nomzod (Roman Nepomnyashiy) loyihalarini uyg'unlashtirish tavsiyasi bilan tanlovda g'olib bo'lgan loyihalar deb topilib, **pitching** (tanlovga tanlab olingan eng yaxshi kinoloyihani amalga oshirish bo'yicha kinokompaniyalar va kinostudiyalar o'rtasida o'tkaziladigan taqdimot shaklidagi tanlov turi) bosqichiga o'tkazildi.

5) Xalqaro hamkorlikda suratga olinishi rejalashtirilgan loyihalar, jumladan, mazkur sinopsislari tanlovida g'olib topilgan **"Shahobiddin Marjoniy", "Buxoro marvaridi", "O'zbekiston arxeologik yodgorliklari durdonalari"** va **"Sehrli ko'za"**

loyihalari bo'yicha investitsiya kiritilib, hamkor studiyalar belgilanganligini inobatga olgan holda kinostudiyalar o'rtasidagi pitchingda qatnashmasdan istisno tarzida shartnomalashgan kinostudiyalarda ishlab chiqarishga ruxsat berildi.

6) Yuqoridagilar bilan bir qatorda Filmlarning g'oyaviy-badiiy saviyasini oshirishga ko'maklashuvchi milliy kengash majlisining **2025-yil-7 yanvardagi 01-sonli bayoni** bilan yetarlicha ovoz ololmagan va tanlov shartlarini bajarmagani uchun tanlovdan olib tashlangan **“Guloyim va qirqqiz”, “Farhod va Shirin”, “Al-Xorazmiy”, “Mirzo Ulug'bek”, “Maqsud Shayxzoda”, “Botir Zokirov”, “Sehrli nay” (turkum), “Buyuk ipak yo'li”, “Imom Buxoriy”, “Imom Moturudiy”, “Yetti pir”, “Bibixonim”, “Temuriylar” turkumi, “Shayboniylar” turkumi, “Herman Vamberi va Mulla Is'hoq”, “Xudoybergan Devonov va nemis mennonitlari”, “Turkistonlik bahodirlar”, “Sharof Rashidov”, “O'zbek ishi”, “Afrosiyob”, “Ma'mun akademiyasi”, “Klavixo”, “Abdurauf Fitrat”, “Abdolvohid Burhonov - Munzim”, “Cho'lpon”, “Munavvarqori Abdurashidxonov”, “Feruz”, “Ahmad Yassaviy”, “Bobur va Boburiylar” hamda “Ubaydulla Xo'jaev”** loyihalariga **2025-yil 15-yanvardan 15-fevralga qadar tanlov e'lon qilindi.**

Tanlovda e'lon qilingan **29 ta** mavzuga kinoloyiha sinopsisi mualliflaridan jami **94 ta** ariza kelib tushdi. Ishchi guruh tomonidan e'londa ko'rsatilgan tanlov talablariga javob bermagan **16 ta** kinoloyiha sinopsisi tanlovdan olib tashlandi. **“Abdolvohid Burhonov – Munzim”** kinoloyihasiga ariza kelib tushmadi.

Tanlov talabiga ko'ra **78 ta** kinoloyiha sinopsisining mualliflari sir tutilgan anonim tarzda Milliy kengash a'zolariga taqdim qilindi, shundan, Milliy Kengash a'zolarining xulosa va ovozlariga ko'ra **15 ta kinoloyiha tanlab olindi.**

Filmlarning g'oyaviy-badiiy saviyasini oshirishga ko'maklashuvchi **Milliy kengashning 2025-yil 29-aprel** kuni bo'lib o'tgan majlisining **2-sonli** qaroriga asosan **6 ta** badiiy va **9 ta** badiiy-publitsistik, jami **15 ta** kinoloyihalar sinopsislari g'olib deb topilib, keyingi bosqichga tavsiya etildi (**“Guloyim va qirqqiz”** 3-nomzod (Boburbek Hamroev), **“Farhod va Shirin”** 2-nomzod (Rustam Jabborov), **“Al-Xorazmiy”** 1-nomzod (Muqaddas Usmonova, Abduqayum Yo'ldoshev), **“Mirzo Ulug'bek”** 3-nomzod (Farrux Jabborov), **“Maqsud Shayxzoda”** 1-nomzod (Nurilla Narzullaev), **“Sehrli nay”** 3-nomzod (Suhrob Qodirov, Feruza Qodirova), **“Imom Moturudiy”** 2-nomzod (Abduhalil Mingnorov), **“Bibixonim”** 4-nomzod (Dilshoda Qosimova), **“Klavixo”** 4-nomzod (Shohida Eshonboboeva), **“Xerman Vamberi va mulla Is'hoq”** 3-nomzod (Furqat Usmonov), **“Feruz”** 2-nomzod (Abu Tolib Adamqulov), **“Turkistonlik bahodirlar”** 1-nomzod (Juneyd Buyukyaka), **“Abdurauf Fitrat”** 1-nomzod (Istam Sodiqov), **“Ubaydulla Xo'jaev”** 2-nomzod (Shahzod To'xtaboev), **“O'zbek ishi”** 3-nomzod (Yusuf Roziqov))

Shuningdek, **“Taqdir ufqlari”, “Erkin Vohidov”, “Temurbeklar maktabi”, “Shiroq”, “Fayzulla Xo'jaev”, “Madaminbek”, “Usmon Nosir”, “Pomir tog'lariday yuksak”, “Navoiyshunoslar jasorati”** kinoloyihalariga pitchingda ishtirok etish uchun jami **24 ta kinostudiya** (kinokompaniya)lardan **murojaat arizalari kelib tushdi.** Shundan, **“Taqdir ufqlari”** badiiy filmi uchun **“ShB” MChJ** studiyasi, **“Temurbeklar maktabi”** badiiy filmi uchun **“Ko'zgu film” MChJ** studiyasi, **“Shiroq”** badiiy-publitsistik

filmi uchun **“RAMZ-FILM”** studiyasi, **“Fayzulla Xo‘jaev”** badiiy-publitsistik filmi uchun **“O‘zbekfilm” DUK**, **“Usmon Nosir”** badiiy-publitsistik filmi uchun **“Hope Film” MChJ** studiyasi, **“Pomir tog‘lariday yuksak”** badiiy-publitsistik filmi uchun **“Hujjatli va xronikal filmlar studiyasi” DUK** g‘olib deb topildi (24 ta kinostudiya (kinokompaniya)dan 6 ta studiya pitching g‘olibi deb topildi).

“Tirik tarix” dasturidagi kinoloyihalar bo‘yicha tanlovda (pitchingda) g‘olib bo‘lgan **6 ta** kinostudiyalar (*“ShB” MChJ*, *“Ko‘zgu film” MChJ*, *“Ramz-Film” MChJ*, *“O‘zbekfilm” kinokonserni” DUK*, *“Hone film” MChJ* va *“Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasi” DUK studiyalari*) tomonidan **adabiy ssenariylar tayyorlash to‘g‘risida Agentlikning 65a-sonli buyrug‘i qabul qilinib ijroga yo‘naltirildi.**

Ushbu tanlovda munosib studiyalar topilmagan **3 ta** (**“Erkin Vohidov”** badiiy filmi, **“Madaminbek”** badiiy-publitsistik filmi va **“Navoiyshunoslar jasorati”** badiiy-publitsistik filmi) kinoloyihalari uchun qayta pitching **o‘tkazish belgilandi.**

Milliy kengash yig‘ilishida Tojikistonlik kinoijodkorlar bilan hamkorlikda suratga olish rejalashtirilgan **“Yulduzlar shu‘lasi: Jomiy va Navoiy”** badiiy filmi **bosh rol qahramonlari** (*Alisher Navoiy obraziga aktyor Ilhom Berdiev va Husayn Boyqaro obraziga aktyor Elbek Fayziev*) nomzodi, **tarixiy liboslar** eskizlari, **film lavhalari** tafsilotlari, **rekvizit** hamda **dekoratsiya** loyihalari hamda boshqa **tashkiliy ishlari tasdiqlandi** (*suratga olish ishlarini boshlashga oid qaror qabul qilindi*).

“Tirik tarix” dasturidan o‘rin olgan **“Xiva langari”** hamda **“O‘zbek arsloni (Kazbek)”** filmlarining rejissyorlik ssenariylari **Badiiy kengash va Milliy kengashning** ishchi guruhlari tomonidan bildirilgan taklif va mulohazalar asosida **qayta ishlab chiqilib**, suratga olish ishlarini jadallashtirish **topshirig‘iga doir Agentlikning 66a-67a-sonli buyruqlari qabul qilindi.**

Shuningdek, **Milliy kengashning 2025-yil 29-aprel** kuni bo‘lib o‘tgan majlisining **2-sonli** qarori bilan tanlovda g‘olib deb topilgan loyihalarga ilmiy-tarixiy va badiiy masalalar bo‘yicha asosiy **hamkor tashkilotlardan** tavsiya qilingan hamda boshqa **xalqaro ilmiy muassasalardan** taklif etilgan **besh nafargacha maslahatchi va muharrirlar** ro‘yxati **tasdiqlandi va ularga tegishli tartib asosida haq to‘lash amaliyoti joriy etildi.**

Shu bilan birga, Filmlarning g‘oyaviy-badiiy saviyasini oshirishga ko‘maklashuvchi Milliy kengashning **2025-yil 29-aprel kuni bo‘lib o‘tgan majlisining 2-sonli bayoni** qaroriga ko‘ra, ikki bor tanlov o‘tkazilganligiga qaramasdan yetarlicha ovoz ololmagan loyihalarga yana qayta tanlov e‘lon qilish maqsadga muvofiq emas, deb topilib, bu kinoloyihalar uchun sinopsislar bo‘yicha ssenariylar yozishni malakali, professional mualliflarga hamda suratga olish ishlarini salohiyatli studiya (*kompaniya*)larga to‘g‘ridan-to‘g‘ri individual buyurtma berish asosida xolis va adolatli hal etish “Tirik tarix” kinoloyihalar Ishchi guruhi zimmasiga yuklatildi. Ayni paytda bu borada ishlar olib borilmoqda. Xususan, **15 ta** (*“Botir Zokirov”, “Afrosiyob”, “Buyuk ipak yo‘li”, “Imom Buxoriy”, “Ahmad Yassaviy”, “Ma‘mun akademiyasi”, “Yetti pir”, “Temuriylar” turkumi, “Bobur va Boburiylar”, “Shayboniylar” turkumi, “Xudoybergan Devonov va nemis mennonitlari”, “Abdulvohid Burhonov – Munzim”,*

“*Munavvarqori Abdurashidxonov*”, “*Cho’lpon*”, “*Sharof Rashidov*”) filmlar uchun to’g’ridan-to’g’ri buyurtma berish masalalari ko’rib chiqilmoqda.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda “Tirik tarix” dasturiga kiritilgan quyidagi kinoloyihalar bo’yicha tegishli choralar ko’rilmogda:

- **“Shahobiddin Marjoniy” badiiy filmi** (Tatariston bilan hamkorlikda) ishlab chiqarishga tushirish uchun tayyorlanmoqda;

- **“O’zbekiston arxeologik yodgorliklari durdonalari” badiiy-publitsistik filmining** (Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlikda) adabiy ssenariysida kamchiliklar mavjudligi inobatga olinib, Milliy kengash ishchi guruhi yig’ilishida qayta ko’rib chiqilishi belgilandi;

- Filmlarning g’oyaviy-badiiy saviyasini oshirishga ko’maklashuvchi **Milliy kengashning 2025-yil 29-aprel kuni bo’lib o’tgan majlisining 2-sonli qarori** asosida, joriy yilning **30-apreldan 30-mayiga** qadar **18 ta** kinoloyihalar uchun (“*Guloyim va qirgiz*”, “*Farhod va Shirin*”, “*Al-Xorazmiy*”, “*Mirzo Ulug’bek*”, “*Maqsud Shayxzoda*”, “*Sehrlil nay*”, “*Imom Moturidiy*”, “*Bibixonim*”, “*Klavixo*”, “*Herman Vamberi va mulla Is’hoq*”, “*Feruz*”, “*Turkistonlik bahodirlar*”, “*Abdurauf Fitrat*”, “*Ubaydulla Xo’jaev*”, “*O’zbek ishi*”, “*Erkin Vohidov*”, “*Madaminbek*”, “*Navoiyshunoslar jasorati*”) **kinostudiyalar o’rtasida tanlov e’lon qilindi.**

Ushbu tanlovga qo’yilgan **18 ta** kinoloyihalar sinopsislari uchun jami **41 ta** studiyadan arizalar kelib tushdi. Shundan, **13 ta kinoloyiha** uchun bittadan ko’p kinostudiya ariza topshirganligini inobatga olib, Filmlarning g’oyaviy-badiiy saviyasini oshirishga ko’maklashuvchi Milliy kengashning **2025-yil 24-iyun kuni bo’lib o’tgan majlisining 3-sonli bayoni** qarori bilan kinostudiyalar o’rtasida pitching o’tkazilib, **11 ta** kinoloyiha bo’yicha **24 ta** studiya ishtirok etgan pitchingda g’olib kinostudiyalar aniqlandi (“*Mirzo Ulug’bek*” – “*O’zbekfilm*” kinokonserni DUK, “*Al-Xorazmiy*” – “*RAMZ-FILM*” kinostudiyasi, “*Farhod va Shirin*” – “*Brothers Partners Ship*” MChJ, “*Maqsud Shayxzoda*” – “*First Art Media*” MChJ, “*Guloyim va Qirgiz*” – “*Qoraqalpog’film*” kinostudiyasi, “*Sehrlil Nay*” – “*OLOV NUR MEDIA*”, “*Imom Moturidiy*” – “*O’zbekfilm*” kinokonserni DUK, “*Herman Vamberi va mulla Is’hoq*” – “*Kinematografiyani rivojlantirish markazi*”, “*Turkistonlik bahodirlar*” – “*KREAFly PROJE REKLAM*”, “*O’zbek ishi*” – “*O’zbekfilm*” kinokonserni DUK, “*Bibixonim*” – “*Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasi*”).

Ma’lumot uchun: Filmlarning g’oyaviy-badiiy saviyasini oshirishga ko’maklashuvchi Milliy kengashning **2025-yil 24-iyun kuni bo’lib o’tgan majlisining 3-sonli bayoni** qarori bilan “**Abdurauf Fitrat**” va “**Navoiyshunoslar jasorati**” badiiy-publitsistik filmlari sinopsisi kengash a’zolari va navoiyshunos olimlar tomonidan bildirilgan taklif va mulohazalar asosida qaytadan ko’rib chiqilib, takomillashtirilgan holda qayta pitchingga kiritilishi belgilandi.

III. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasining hujjatlaridagi topshiriqlar ijrosi bo’yicha amalga oshirilgan ishlar.

«**Ijro.gov.uz**» ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali Agentlikka joriy yilda **26 ta Prezident hujjati** (shundan **11 ta Farmonda**, **11 ta qarorda**, **4 ta bayonda**) bilan **91 ta topshiriq** (shundan, yanvarda **16 ta**, fevralda **10 ta**, martda **15 ta**, aprelda **10 ta**, mayda **17 ta**, iyunda **23 ta**) **bo’yicha nazorat rejalari** va (yanvar-iyun

oylaridagi) **topshiriqlar bo'yicha kunbay kalendar grafik va "Yo'l xarita"lari ishlab chiqildi.**

Topshiriqlar ijrosi har haftaning dushanba kuni Agentlikning apparat yig'ilishlarida muhokama qilib borildi.

Natijada, kelib tushgan **26 ta Prezident hujjatidagi 91 ta topshiriqning ijrosi (100%ga) to'liq ta'minlandi.**

Bundan tashqari, **Vazirlar Mahkamasi hujjati bo'yicha «ljro.gov.uz»** ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali Agentlikka joriy yil **II choragi davomida 14 ta hujjatda 29 ta** (*shundan, yanvarda 3 ta, fevralda 3 ta, martda 3 ta, aprelda 5 ta, mayda 8 ta, iyunda 7 ta*) **topshiriq ijro uchun kelib tushgan.**

Kelib tushgan 14 ta hujjatdagi 29 ta topshiriq ijrosi (100%ga) to'liq ta'minlandi.

Topshiriqlar ijrosi (*25 marotaba*) har haftaning dushanba kuni **Agentlikning apparat yig'ilishlarida muhokama qilib borildi.**

Natijada **«ljro.gov.uz»** ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali nazoratga olingan **Prezident hujjatidagi 91 ta, Vazirlar Mahkamasi hujjatidagi 29 ta, jami 120 ta topshiriq ijrosi (100%ga) to'liq ta'minlandi.**

IV. Korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar

Agentlik **2024-yil yakunlariga ko'ra** Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan reyting baholash ko'rsatkichlari bo'yicha **100 ballik** sistemada yakuniy **70 ball** bilan baholandi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan **65 ball** yuqori bo'lib, ijobiy o'zgarishga erishildi.

Joriy yilda Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini reyting baholash tizimiga **beshta** yo'nalish va **29 ta** indikator asosida **«E-Anticor.uz»** elektron platformasiga **yanvar-iyun oylari** yakuni bo'yicha **64 ta** jadval asosida tuzilgan hisobotlar to'liq kiritildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan joriy yilning **7 mart va 23 iyun kunlari** Agentlik markaziy apparati va idoraviy mansub tashkilotlar xodimlari uchun o'quv seminar tashkil etildi. Mazkur seminarlarda O'zbekiston Respublikasining **"Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'RQ-931-sonli Qonuni** mazmun-mohiyati, shuningdek, korrupsiya holatlari haqida xabar berish mexanizmi, xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish, ularning ta'qibga olinmasligining kafolatlari bo'yicha batafsil tushuntirishlar berildi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda Agentlikning barcha xodimlaridan korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik bo'yicha kafolat xatlari olinib, deklaratsiyalar to'ldirildi hamda yangi ishga qabul qilingan **14 nafar** xodimlar bilan korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi.

Shu bilan birga Kinematografiya agentligi va tizim tashkilotlarida **"Davlat xaridlari"ni** amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida Kontragentlar ustidan nazorat qilish reestri shakllantirilib, **yanvar-iyun** oylaridagi xaridlar bo'yicha monitoring amalga oshirildi. Monitoring natijalariga ko'ra 2025-yilning **yanvar-iyun oylari** davomida **32 ta** xo'jalik shartnomalari tuzilgan bo'lib, kamchiliklarga yo'l qo'yilmaganligi aniqlandi.

V. Ta'lim yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar

S.A. Gerasimov nomidagi butunrossiya davlat kinematografiya universiteti (BDKU) Toshkent filialining yangi 2025/2026 o'quv yili qabul parametrlarini shakllantirish maqsadida Agentlikning 2025 yil 31 yanvardagi 01-05/09-212-son xati bilan **mazkur filialning 2025/2026 o'quv yili qabul parametrlari rejasi kelishildi.**

Bugungi kunda ushbu filialda **kinooperatorlik, aktyorlik mahorati, kino va televidenie rejissyorligi, dramaturgiya va prodyuserlik** ta'lim yo'nalishlarida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan.

Ma'lumot uchun: filialda kunduzgi va sirtqi ta'lim yo'nalishlarida hozirda jami **229 nafar** (shundan, **88** nafari qizlar va **16** nafari xorijiy talabalar) (kinooperatorlikda **23** nafar, aktyorlik mahoratida **52** nafar, kino va televideniya rejissyorligida **47** nafar, dramaturgiyada **31** nafar hamda prodyuserlikda **76** nafar) talabalar tahsil olishmoqda.

Shuningdek, filialda 2025/2026 o'quv yilidan boshlab yangi **“Kinoshunoslik”** va **“Kino va televidenie rejissyorligi” (animatsiya va kompyuter grafikasi rejissyorligi)** ta'lim yo'nalishlari tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Filialda **3 ta** doktorlik dissertatsiyalari PhD himoyalari o'tkazilgan bo'lib, ta'lim beruvchi professor-o'qituvchilar soni **59** nafarni, ularning ilmiy salohiyati **85% ni** tashkil etadi.

Mazkur universitet rektori san'atshunoslik fanlari doktori, professor, Akademik, V.S.Mal'yshevning roziligiga ko'ra 2025-yil 17-yanvar kuni Toshkent shahar filialining kengaytirilgan majlisi bayoniga asosan **Ilmiy kengash tashkil etildi.**

Joriy yilning 27 yanvar kuni filial tomonidan o'tkazilgan Ilmiy kengash doirasida **“Kinorejissura” ta'lim yo'nalishi** oliy kursi ilk bitiruvchilarining bitiruv malakaviy ijodiy ishlari himoyasida ishtirok etildi.

Toshkent filialining 2025 yil 23 yanvardagi 75a-sonli buyrug'iga asosan joriy yilning 2-8-fevral kunlari **“Kinooperatorlik”** ta'lim yo'nalishining **2 nafar** o'qituvchi va **3 nafar** talabalari Moskva shahriga BDKUda **amaliyot o'tash maqsadida yuborildi.**

Joriy yilning 27-mart kuni BDKU tomonidan Moskva shahrida tashkil etilgan **“XX–XXI asr kinolarida Ikkinchi Jahon urushi mavzusiga bag'ishlangan Xalqaro yoshlar ilmiy-amaliy konferensiyasi”da** Toshkent shahar filialining **4 nafar** talabalari **o'z maqolalari bilan ishtirok etishdi.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 5 iyundagi “Kinematografiya sohasini yanada rivojlantirish hamda mamlakatimiz tarixiga bag'ishlangan filmlar turkumini yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-209-sonli qarorining **12-bandi** ijrosini ta'minlash maqsadida **O'zbekiston milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi** qoshida kinematografiya sohasi uchun **o'rta maxsus mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash maktabi** tashkil etildi.

Mazkur kinomaktab faoliyatini yo'lga qo'yish va litsenziya olish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 25 fevraldagi “Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor qilish tartibi to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida”gi VMQ-88-son qarorida belgilangan tartibda litsenziya olish ishlari joriy yilning 17-yanvar kuni yakunlandi (**№574531-17.01.2025y**).

Kinomaktabda tashkil etilgan **“Kino rejissura”, “Kaskadyorlik mahorati”, “Grimyorlik”, “Animatsiya”, “Operatorlik mahorati”, “Montaj”, “Prodyuserlik”** va

“Kinoda ovoz rejissurasi” yoʻnalishlari boʻyicha oʻquv dasturlari hamda oʻquv rejalari ishlab chiqilib, bugungi kunda oʻquvchilar qabul qilish jarayonlari ketmoqda.

Shuningdek, Kinomaktab faoliyatini tashkil qilish uchun vaqtincha Oʻzbekiston Milliy kino sanʼati saroyi binosining boʻsh turgan xonalari ajratildi hamda Kinematografiyani rivojlantirish markazining texnik bazasidan foydalanilgan holda oʻquv xonalari jihozlandi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda Agentlikning **2025 yil 18 fevraldagi 18a-sonli buyrugʻi** bilan tasdiqlangan dastur asosida joriy yilning **12-mart kuni** “Oʻzbekiston Milliy kino sanʼati saroyi”ning anjumanlar zalida **“Tirik tarixdan nurli kelajak sari”** mavzusida **oʻzbek kinosining 2024 yilda ishlab chiqarilgan filmlar sarhisobi, tahlili va yangi rejalarga bagʻishlangan Respublika ilmiy-amaliy anjumani** oʻtkazildi.

Anjumanda taniqli kinoaktyor va aktrisalar, kinoarboblar ijodiy uyushmasi aʼzolari, kinotahlilchilar, soha oliygohlarining mutaxassis va talabalari (*OʻzDSMI, BDKU Toshkent filiali, MRDI va boshqa*) hamda OAV vakillari ishtirok etdilar.

Tasdiqlangan dasturga asosan, anjuman avvalida **“Yangi Oʻzbekiston”ning yangi kinosanʼati durdonalariga bagʻishlangan koʻrgazma** tashkil etildi. Shundan soʻng kinotahlilchi olimlar tomonidan **“Oʻzbekistonning yangilanayotgan kino sanʼati”, “Tarixiy mavzudagi badiiy filmlar”, “Zamonaviy mavzudagi badiiy filmlar”, “Hujjatli kinoda anʼana va yangilanish tamoyili”, “Milliy multfilmlar yaratishdagi muammolar va yechimlar”, “Milliy seriallar: mavzu dolzarbligi va talqin”** kabi mavzularda maʼruzalar qilindi hamda ishtirokchilarni qiziqtirgan savollarga tegishli javoblar berildi.

Shuningdek, anjumanda soʻzga chiqqanlar jamiyat birdamligi, yurt taraqqiyoti, yosh avlodni yuksak gʻoyalar ruhida tarbiyalashda tarixiy filmlarning oʻrni beqiyosligini, shu bois rivojlangan texnologiyalar asrida kino ijodkorlarimiz jahon kinosidagi raqobatni, tomoshabin bugun barcha maʼlumotlarni bemalol olishini koʻzda tutgan holda ijod qilishlari lozimligini qayd etib oʻtdilar.

Bundan tashqari, anjuman doirasida **joriy yilning 20-fevralidan 6-martigacha** Oʻzbekiston Milliy kino sanʼat saroyida oʻtkazilgan **“Ochiq eshiklar kuni” filmlar namoyishi** ham ushbu telekanallar orqali keng targʻib qilindi hamda namoyish etilishi belgilangan filmlar repertuarlari toʻgʻrisidagi kunlik maʼlumotlar, ular toʻgʻrisidagi tizerlar (*film haqidagi qisqacha roliklar*) Milliy kino sanʼat saroyining eʼlon taxtalari va elektron ekran-monitorlarida berib borildi.

Maʼlumot uchun: “Ochiq eshiklar kuni” doirasida **16 ta badiiy film** (“Bahodir Yalangtoʻsh”, “Pandemiya”, “Bir kuni Samarqandda”, “Yangi yil”, “Uyga qaytish”, “Uch qahramon”, “Kallaxona LOVE”, “Bahorni quvib...”, “Xaus”, “Sevdo”, “Samuray”, “Qariqiz”, “Zobit-55”, “Maxtumquli”, “Ishq va anduh” va “Odina”), **1 ta badiiy-publistik film** (“Ajiniyoz”), **38 ta hujjatli film** (“Mukarrama Turgʻunboeva”, “Halima Nosirova”, “Joʻraxon Sultonov”, “Muhiddin Rahimov”, “Fattoxhon Mamadaliev”, “Toʻra Sulaymon”, “Baxtiyor Sayfullaev. Soʻnggi nafasgacha”, “Alisher Navoiy”, “Yangi Oʻzbekiston lochinlari”, “Seni vatan kutadi”, “Zamonaviy harbiy institut”, “Qutqaruvchi”, “Ayollar daftari”, “Tadbirkorlik. Katta sakrash”, “Islom – tinchlik va ezgulik dini”, “Xavfli hudud”, “Jadid maʼrifati”, “Ziyorat – oltin yoʻl” 5 qism, “Hamza

Umarov”, “*Shuhrat Abbosov*”, “*Maryam Yoqubova*”, “*Nabi Rahimov*”, “*Shukur Burhonov*”, “*Razzov Hamroev*”, “*Komil Yormatov*”, “*Yo’ldosh A’zamov*”, “*Lutfixonim Sarimsoqova*”, “*Nabi G’aniev*”, “*Oy borib, omon qaytganlar*”, “*Yangi O’zbekiston kinosolnomasi*” 12 qism, “*O’zbekiston madaniy merosi Polsha muzeylarida*”, “*Siz kimsiz, janob Vamberi?*”, “*Hamidulla Akbarov*”, “*Yoqub Ahmedov*”, “*Jonivorlar haqida suhbat*” 16 qism, “*Turg’un Azizov: sahna sarlochini*”, “*Muhammadali Abduqunduzov*” va “*Abdurahim Ismoilov: tasvirdagi taqdirilar*”) **6 ta animatsion film** (“*Musbatoy va Manfiybek*” 15 qism, “*Shum bolaning sarguzashtlari*” 10 qism, “*Buyuk Ipak yo’li bo’ylab sayohat*”, “*To’maris*”, “*Renessans: Amir Temur*” va “*Renessans: Al-Xorazmiy*”), **23 ta qisqa metrajli filmlar** (“*Ko’zgu*”, “*Ona*”, “*Rang va ohang*”, “*O’zbekoy*”, “*Uyg’onish*”, “*Hasad*”, “*Orzusiz bir kun*”, “*Ya lyublyu Tashkent*”, “*Burch*”, “*Gol*”, “*Daraxt*”, “*Qizil yo’lak*”, “*Mag’firat*”, “*Muhabbat bitta bo’ladimi?*”, “*Intizor*”, “*Drel*”, “*G’amxo’rlik*”, “*O’tmish tushi*”, “*Behbudiy*”, “*Va’da*”, “*Zangori tosh*”, “*Zumrasha*” 2 qism va “*Quvlashmachoq*”) namoyish etilib, har bir film namoyishida **200 nafardan** oshiq tomoshabinlar ishtirok etishiga erishildi.

Shu bilan birga, ilmiy-amaliy anjuman uchun talabgorlar tomonidan taqdim etilgan **maqolalar to’plami hamda 2024 yilda ishlab chiqarilgan filmlarga oid materiallar katalogi** tayyorlanib, ishtirokchilarga tarqatildi.

Anjuman yakunida o’zbek va jahon retro kinolari ixlosmandlari uchun yangi tashkil etilgan “**Retro filmlar**” namoyishlar zalining **tantanali ochilishi** marosimi bo’lib o’tdi.

Bugungi kunda mazkur kinozalda retro klubi a’zolari (kinoblogerlar, kinotanqidchilar, kinojurnalistlar, kinoijodkorlar va kinoixlosmandlar) har haftada muayyan bir jahon va o’zbek kinosining mumtoz namunalaridan hisoblangan retro filmni tomosha qilishib, mazkur film borasida o’zaro fikr almashib borishmoqda.

Ma’lumot uchun: bugunga qadar “*Retro filmlar*” namoyishlar zalida jahon va o’zbek kinosining mumtoz namunalaridan hisoblangan **41 ta badiiy va musiqiy filmlarning** namoyishlari bo’lib o’tdi.

Yuqoridagilarning barchasi ham ijodiy, ham texnik jihatdan rivojlanishga xizmat qilib, kino sohasida yuqori sifatli ishlarni yaratish imkonini bermoqda.

Shu bilan birga Agentlik tashabbusi bilan Toshkent shahridagi “**S.A. Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya universiteti**” filiali salohiyatidan foydalanib, “**Ijodiy parvoz**” yosh ijodkorlar xalqaro kinofestivalini tashkil etish rejalashtirildi.

Mazkur festival tashkiliy masalalarini muhokamasi yuzasidan joriy yilning **28-30-aprel** kunlari O’zbekiston Respublikasi **Madaniyat vazirligi, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutidan** birlashtirilgan mas’ullar ishtirokida yig’ilishlar bo’lib o’tdi hamda ushbu yig’ilishda festival konsepsiyasi, nizomi, tashkiliy smeta va boshqa masalalar **muhokama qilindi**.

BDKU Toshkent filialining o’quv yili yakuni va yangi o’quv yili parametrlarini tasdiqlashga bag’ishlangan **Vasiylik kengashi** Bayoni loyihasi ishlab chiqilib, kengash kotibiga **kengash a’zolari** bilan kelishish **ishlarini olib borish topshirildi**.

Joriy yilning **29-30 may kunlari** O'zbekistonda Rossiya kino kunlari o'tkazilishi munosabati bilan tadbir doirasida BDKU Toshkent filialiga **O.A. Nazarbekov, O.B. Lyubimova, V.S. Malyshev, A.V. Malyshev, A.B. Tadjixanov, Sh.T. Rizaev, A.J. Xadjaev, I.S. Klebanov, E.M. Ishmuxamedov, O.A. Agishev, R.A. Sagdullaevlar** tashrifi **tashkillashtirilib**, ular filialning bugungi kundagi faoliyati, yangiliklar bilan tanishtirildi. Shuningdek, Rossiya federatsiyasi Madaniyat vaziri tomonidan filialning **oliy kursi bitiruvchilari** uchun diplom hamda **R.A.Sagdullaevga maxsus ko'krak nishoni** taqdim etildi.

VI. Ommaviy namoyishlar bo'yicha ruxsatnomalar berish yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar

Xorijiy va milliy filmlarga ommaviy namoyish etish uchun bir martalik ruxsatnoma berish yuzasidan partner.licenses.uz sayti orqali hamda xat orqali qabul qilingan arizalar joriy yilning yanvar – iyun oylari davomida **191 tani** tashkil etdi.

Kelib tushgan **191 ta** arizani ko'rib chiqish yuzasidan **191 marotaba** Ekspert komissiyasi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Shundan, **21 ta** bayon milliy film, **146 ta** bayon xorij filmlari, **6 ta** kino festivallar, **12 ta** tasvirga olish, **5 ta** film-konsert va **1 ta** seriallar uchun yig'ilish bayonlari rasmiylashtirilgan.

Xususan, Ekspert komissiyasining xulosasi asosida:

jami **21 ta** milliy film, shundan, **16 ta** milliy badiiy film ("*Qahramonning qaytishi*", "*Musiqqa – bu sevgi*", "*Qadar*", "*Garov*", "*Chimildiq*", "*Adolat*", "*Qutqaruvchi*", "*Onlayn sevgi*", "*Qovun o'g'rilari*", "*Bir kuni Samarqandda*", "*O'zbekcha ajrashish*", "*Dejavu*", "*Kombayn*" (*qoraqalpoqcha*), "*Ogoh*" va "*Qora pul*", "*Begonalar yurmas bu yerda*") **1 ta** serial ("*Fenomen*" 20 qismli) **1 ta** animatsion film ("*Yashil makon*") hamda **3 ta** qisqa metrajli film ("*Rafiqqa*", "*26 aprel*", "*Namuna*") namoyishga tavsiya etildi, **1 ta** milliy filmga ("*Sustxotin*") Ekspert komissiyasining xulosasi berildi;

jami **146 ta** xorijiy filmdan **137 tasiga** ommaviy namoyish etish uchun bir martalik ruxsatnomalar berildi, **9 ta** xorij filmi rad etildi;

Ekspert komissiyasi yig'ilishining **6 ta** bayoni bilan xorijiy mamlakatlarning O'zbekistondagi kino festivallari va kino kunlari doirasida **29 ta film** ko'rikdan o'tkazilib, **26 tasiga** namoyishga ruxsat berildi hamda **3 ta** film rad etildi;

Xususan, **2025 yilning 2-4 mart kunlari** bo'lib o'tgan "**Tatar kinosi kunlari**" doirasida **4 ta** ("*Apipa*", "*Gora vlyublennyyh*", "*Nemaya kukushka*", "*Ya pridu*") badiiy filmlari ko'rikdan o'tkazilib, namoyishga tavsiya etildi;

Gyote institutining joriy yilning **13-17 aprel kunlari** o'tkazilgan "**XII bolalar va o'smirlar "Shum bola" festivali**" doirasida **7 ta** ("*Sieger sein/Pobediteli*" (Germaniya), "*Grüße vom Mars/Privet s Marsa*" (Germaniya), "*Die Heinzels: Neue Mützen, neue Mission/ Gномы: Новые шапки, novaya missiya*" (Germaniya), "*Rapunzel und die Rückkehr der Falken/Rapunsel i vozvraçenie sokolov*" (Germaniya/Chexiya), "*Das schönste Mädchen der Welt/Samaya krasivaya devushka v mire*" (Germaniya), "*Die Schule der magischen Tiere/Shkola magicheskix zverey*" (Germaniya), "*Golosa iz kosmosa*" (Germaniya)) badiiy filmlari ko'rikdan o'tkazilib, shundan, **6 ta film** namoyishga tavsiya etildi va **1 ta film** rad etildi;

joriy yilning 12-16 mart kunlari o'tkazilgan **"Hind kinosi kunlari"** doirasida **5 ta** (*Ardxangini*) (*Ardhangini*) *Sadoqatli yor* (2023), *"Gxumer"* (*Ghoomer*) (2023), *"Pouyochina"* (*Thappad*) *Tarsaki* (2020), *"Ona"* (*Amma Kanakku*) (2016), *"Ayol zehni"* (*English Vinglish*) (**2012**) badiiy filmlarini O'zbekiston Respublikasi hududida **"Hind kinosi kunlari"** doirasida namoyish qilish va o'zbek tilida subtitrlashtirish **tavsiya etildi**;

2025-yilning 24-28-mart kunlari o'tkazilgan **"Fransiya kinosi kunlari"** doirasida **4 ta** badiiy film ko'rikdan o'tkazildi, shundan **3 ta film** (*"Xoroshie parni"* (*Les Gentils*), *"Xoroshie parni popadayut v ray"* (*Good Guys Go To Heaven*), *"Sent – Ekzyuperi"* *Saint-Exupéry*) namoyishga tavsiya etildi, **1 ta film** (*"Veter peremen"* *Le vent tourne* (*WITH THE WIND*)) **rad etildi**;

2025-yilning 15-may kuni Xiva shahrida o'tkazilgan **"Koreya kinosi kunlari"** doirasida **2 ta** badiiy filmlar (*"Malenkiy les"* (*Little Forest*), *"Moy pyos Runi"*-*My Hart Puppy*) ko'rikdan o'tkazildi va namoyishga **tavsiya etildi**;

2025-yilning 29-31-may kunlari o'tkazilgan **"Rossiya kinosi kunlari"** doirasida **6 ta** badiiy film (*"9 sekund"*, *"Vozvraçenie popugaya Keshi"*, *"Vozdux"*, *"Kulturnaya komediya"*, *"Fedya. Narodnyy futbolist"* va *"Gruppa krovi"*) ko'rikdan o'tkazildi va namoyishga **tavsiya etildi**.

Shuningdek, Ekspert komissiyasi yig'ilishining **5 ta bayoni** bilan **4 ta film-konsert ko'rikdan** o'tkazilib, shundan **1 tasi** (*"Shou LOLA"*) **rad etildi**, **4 tasi** (*"Imagine Dragons: Live from the Hollywood Bowl"* 12+ (2025) (AQSh), *"SEVENTEEN [RIGHT HERE] WORLD TOUR IN CINEMAS"* 12+ (2025) (Janubiy Koreya), *"ATEEZ WORLD TOUR"* film-konsert (2025yil, 12+ (Janubiy Koreya) va *"Zalsburg: Traviata"* *La Traviata* 16+ (2025) (Germaniya, Yaponiya, Avstriya)) **namoyishga tavsiya etildi**.

Xorijiy kinokompaniyalar tomonidan **O'zbekiston Respublikasi hududida filmlarni kino va video tasvirga olish uchun ruxsatnoma** berish bo'yicha **12 ta** bayon rasmiylashtirilib, shundan **7 ta kinoloyihaga** (*"Krutaya peremena"* 8 qismli serial (Rossiya), *"Listy sada M."* (Rossiya) qisqa metrajli film, *"Pamir-serdse Azii"* (Avstriya) 2 qismli hujjatli film, *"PASHA"* seriali (8 – qism) Rossiya, *"PAMIR - SERDSE AZII"* (Avstriya) hujjatli film 2 qismli, 52 daqiqadan, *"Russkim Yazыkom"* (Rossiya) hujjatli filmi va *"Mamlyuki"* Mamluklar seriali 30 qism (Quvayt)) **ruxsat berildi 5 ta loyiha rad etildi**.

"Har bir serial–bir missiya" seriallar tanlovi doirasida Ishchi guruh tomonidan taqdim etilgan **16 ta serialning** (*"Ayol matonati"* – (20 qism, *"Mahalla"* telekanali), *"Ena"* – (10 qism, *"Renessans"* telekanali), *"Kechikkan qasos"* – (15 qism, *"Yoshlar"* telekanali), *"Meni ehtiyot qil"* – (20 qism, *"Mening yurtim"* telekanali), *"Musofir go'dak"* – (20 qism, *"Mahalla"* telekanali), *"Oila siri"* – (20 qism, *"Mahalla"* telekanali), *"Shukrona"* – (20 qism, *"Madaniyat va ma'rifot"* telekanali), *"Uka"* – (20 qism, *"Mahalla"* telekanali), *"Vatan fidoyilari"* – (20 qism, *"O'zbekiston"* telekanali), *"Vijdon agentligi"* – (20 qism, *"Mening yurtim"* telekanali), *"Maxsus bo'lim"* (*"Bir jinoyat izidan"*) – (20 qism, *"Mening yurtim"* telekanali), *"Qayta tirilish"* – (20 qism, *"Mahalla"* telekanali), 13. *"Yo'lbars"* – (20 qism, telekanal ko'rsatilmagan), *"Nomus kuchi"* – (20 qism, *"Madaniyat va ma'rifot"* telekanali), *"Musofirlar"* – (10 qism, *"Toshkent"* telekanali), *"Musbat va manfiy"* – 20 qism, *"Renessans"* telekanali)) ssenariy va sinopsislari Ekspertlar komissiyasi tomonidan ko'rib chiqildi. Shundan, Kengash a'zolari tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalardan va qo'yilgan ballardan kelib chiqib, **10 ta serial** (*"Ayol matonati"* – (20 qism, *"Mahalla"* telekanali) – 38 ball, *"Ena"* – (10 qism, *"Renessans"* telekanali) - 45 ball, *"Kechikkan qasos"* – (15 qism, *"Yoshlar"* telekanali) - 38 ball, *"Meni ehtiyot qil"* – (20 qism, *"Mening yurtim"* telekanali) – 40 ball, *"Musofir go'dak"* – (20 qism, *"Mahalla"* telekanali) - 41 ball, *"Oila siri"* – (20 qism, *"Mahalla"* telekanali) – 37 ball, *"Shukrona"* – (20 qism, *"Madaniyat va ma'rifot"* telekanali) – 41 ball, *"Uka"* - (20 qism, *"Mahalla"* telekanali) – 40 ball, *"Vatan fidoyilari"* – (20 qism, *"O'zbekiston"* telekanali) – 41 ball, *"Musbat va manfiy"* – (20 qism, *"Renessans"* telekanali) – 41 ball)) **yuqori ball** bilan baholanib, g'olib deb topildi hamda loyiha sifatida qabul qilindi.

"Vijdon agentligi" seriali loyihasi mavzu jihatidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi faoliyati bilan bevosita bog'liqligi inobatga olinib, mazkur

loyiha Ijtimoiy himoya milliy agentligi bilan hamkorlikda o'tkaziladigan film va seriallar loyihalari tanloviga taqdim etilishi maqsadga muvofiq, deb topildi.

“Maxsus bo'lim” (“Bir jinoyat izidan”), “Qayta tirilish”, “Yo'lbars” va “Nomus kuchi” seriallarining adabiy ssenariylarini bildirilgan tanqidiy fikr-mulohazalardan kelib chiqib, qayta ishlash, tahrirlash va to'ldirish hamda **“Har bir serial – bir missiya”** seriallar tanlovining keyingi bosqichlarida ishtirok etishi tavsiya etildi. **“Musofirlar”** seriali loyihasi seriallar **pitchingida ishtirok etmadi**.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda 2025-yilning **mart, aprel, may va iyun** oylari uchun kinoteatrlar va madaniyat markazlarida hamda bayram kunlari namoyish etish uchun tavsiya etilayotgan milliy filmlar repertuarlari shakllantirilib, respublikamizda faoliyat olib borayotgan barcha kinoteatrlarga yuborildi.

VII. Kinoloyihalar yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar

Joriy yilning **10-13-yanvar kunlari** “O'zbekiston milliy kino san'ati saroyi”da O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirligi hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan hamkorlikda ishlab chiqarilgan harbiy vatanparvarlik mavzusidagi **4 ta hujjatli filmning** (*“Yangi O'zbekiston lochinlari”, “Zamonaviy harbiy institut”, “Ulug'vor qalb bilan qutlug' saflarga” va “Qutqaruvchi”*) taqdimoti bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari asosida ommaviy tadbirlardagi katta hajmli led ekranlar uchun jami: **211 ta** videorolik, shundan, “14 yanvar - Vatan himoyachilari kuni” bo'yicha - **42 ta**, Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligi bo'yicha – **21 ta**, Pokiston Bosh vazirining O'zbekistonga rasmiy tashrifi bo'yicha – **24 ta**, “8 mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni” bo'yicha - **31 ta**, Navro'z umumxalq bayrami bo'yicha - **38 ta**, Tojikiston Respublikasida “O'zbekiston madaniyat kunlari” doirasida “Qadriyatlarining boqiy bo'lsin, Navro'z!” mavzusidagi madaniyat va san'at ustalarining tantanali konsert dasturi uchun - **15 ta**, joriy yilning 4-5 aprel kunlari bo'lib o'tgan birinchi Samarqand iqlim forumi bo'yicha - **40 ta** videorolik tayyorlab topshirildi.

Agentlik tomonidan Hukumat topshiriqlarida belgilangan mavzular bo'yicha joriy yilning **17-yanvaridan 17-fevralga** qadar davlat buyurtmasi asosida ishlab chiqarilishi rejalashtirilayotgan kinoloyihalarga **18 ta mavzu yo'nalishlari** bo'yicha **tanlov e'lon qilindi**. Mazkur tanlovga **61 ta studiyadan 346 ta loyiha** kelib tushdi.

Kelib tushgan loyihalardan **87 tasi** tanlov talablariga javob bermagani uchun tanlovdan chiqarildi, qolgan **259 ta** loyiha esa joriy yilning 20 fevralidan 6 martiga qadar **9 marotaba** o'tkazilgan Badiiy kengash pitchingida ko'rib chiqilib, **54 ta** loyiha g'olib deb topildi.

Ma'lumot uchun: 19 ta badiiy film (*“Qoravoy”, “Ayajonlarim”, “Samarqandga yo'l olgan eshelon”, “Meni kut”, “Ona qadamlari”, “999,9”, “O'g'il”, “Zamonaviy ertak”, “Mening uyim”, “Qora kitob”, “Sahro bilan yuzma-yuz”, “Bir paytlar So'qoqda”, “Bir, ikki, uch...”, “Oyoq”, “Kuydirgi”, “Erkak”, “Tanlangan”, “Hoshimov” va “Markaz malikasi”*)**lar;**

2 ta badiiy-putitsistik film (*“Muallim” (Qalbidagi maktab) va “Cho'ngqoyada quyosh uyg'ondi”*)**lar;**

14 ta hujjatli film (*“Qardoshlik. Dunyoni birdamlikka chorlagan muloqot”, “Mushtarak dillar”, “Konchilar”, “Yo'qolayotgan tabiat – boy berilayotgan go'zallik”, “Vali G'afurov”, “Sodiq Azimov: Quyoshga intilgan alloma”, “Bahodir Yo'ldoshov: manzil – yetuklik”, “G'anijon Turg'unov Mono elektro rahbari”, “Amputant”, “Mahbora: ona simfoniyasi”, “Ilk rivojlanish markazi”, “Hamroh”, “Yangi O'zbekistonning yangi parlamenti” va “O'zbekfilm 100 yoshda”*)**lar;**

7 ta multiplikatsion film va serial (*“Xatolar mamlakatida”, “Bizkim, baklajikalar”, “Yolg'iz emasman”, “Internetdagi xavfsizlik”, “Burch izidan”, “Hasanboy” va “Saxovat”*)**lar;**

1 ta kinojurnal (“Zumrasha”);

4 ta qisqa metrajli film (“Qimmatga tushgan xato”, “Onamga xat”, “Devor ortida kuy” va “Boy berilgan avlod”))lar;

7 ta ijtimoiy roliklar (“Rahm qiling”, “Men yaxshiman”, “Oila – eng yaqin qo‘rg‘on”, “Nafas olishga ulgur”, “Yoshlik – oltin davr”, “Oila – jamiyat tayanchi”, “Mehr va muhabbat – oila asosi”))lar.

Mazkur **54 ta** kinoloyihalarning **40 tasining** adabiy ssenariylari yozilmoqda, **14 tasi (3 ta badiiy** (“Meni kut”, “Qora kitob” va “Bir paytlar So‘qoqda”), **6 ta hujjatli** (“Qardoshlik. Dunyoni birdamlikka chorlagan muloqot”, “Mushtarak dillar”, “Vali G‘afurov”, G‘anijon Turg‘unov: O‘z chirog‘ini yoqqan odam (Mono elektro rahbari)”, “Mahbora: ona simfoniyasi” va “Hamroh”), **4 ta multiplikatsion** (“Xatolar mamlakatida”, “Bizkim, baklajkalar”, “Burch izidan” va “Saxovat”)) **filmlar** va **1 ta qisqa metrajli film** (“Onamga xat”) **ishlab chiqarishga tushirilgan.**

Bundan tashqari, Samarqand viloyati hokimligining **100%** homiyligi asosida **“Samarqand – afsona shahri”** badiiy filmi Agentlikning **57a-son** buyrug‘i asosida, shuningdek, Farg‘ona viloyati hokimligi bilan hamkorlikdagi **“Qiziq karvon”** badiiy filmi **69a-son** buyrug‘i asosida ishlab chiqarishga tushirildi.

Shuningdek, milliy qahramonlar haqida multiplikatsion film va seriallar ishlab chiqarish bo‘yicha belgilangan topshiriq ijrosini ta‘minlash maqsadida **“Beruniy sarguzashtlari”** (rejissyor A.Haydarov), **“Ahmad al-Farg‘oniy”** (rejissyor A.Haydarov) nomli multiplikatsion filmlar ishlab chiqarildi.

Bundan tashqari **2024 yildan 2025 yilga o‘tgan jami 9 ta, shundan, 7 ta badiiy film** (“Amaliyotchi qiz” (Adliya vazirligi bilan hamkorlikda), “Hudud” (Ichki ishlar vazirligi bilan hamkorlikda), “Xiva langari” (“Tirik tarix” filmlar turkumidan Xorazm viloyati hokimligi bilan hamkorlikda), “O‘zbek arsloni” (Farg‘ona viloyati hokimligi bilan hamkorlikda), “Matonat” (Paralimpiya qo‘mitasi, O‘zbekiston Liberal demokratik partiyasi bilan hamkorlikda), “Sehrlı chapaqay” (O‘zbekiston Futbol federatsiyasi bilan hamkorlikda), “Shamsiqamar” (Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi bilan hamkorlikda), **1 ta badiiy-publitsistik film** (“Maryam” (Yoshlar ishlari agentligi, Xorazm viloyati hokimligi bilan hamkorlikda) hamda **1 ta hujjatli film** (“Omon qolish elementlari” (Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi bilan hamkorlikda) **mahalliy investitsiyalar hisobidan ko-produksiya shaklida amalga oshirilmoqda.**

Shuningdek, joriy yilning yanvar-iyun oylari davomida **8 ta badiiy film** (“Va‘da”, “Adolat”, “Qutqaruvchi”(“Uzilgan gulim”), “Uyga qaytish”, “Umida” (Fudziyama haqida tush), “Bir kuni Samarqandda”, “Daydi shamol” va “Cho‘liq” **filmlari Agentlik buyurtmasi asosida**), **7 ta hujjatli** (“Yangi O‘zbekiston lochinlari”, “Zamonaviy harbiy institut”, “Ulug‘vor qalb bilan qutlug‘ saflarga”, “Ayollar daftari”, **“Ma‘rifatga intilib (‘‘Zamonamiz jadidlari’’)**”, “Ilm majnuni” va “Qutqaruvchi”) **filmlar**, **6 ta animatsion** (“Beruniy sarguzashtlari”, “Ahmad al-Farg‘oniy”, “Shiroq afsonasi”, “Abu Rayhon Beruniy”, “Muso al Xorazmiy”, “Musbatoy va Manfiybek” (16-30 qismlari)) **filmlar taqdimotlari o‘tkazildi.**

VIII. Davlat buyurtmasi asosida “Seriallar” ishlab chiqarish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

Kinematografiya agentligi tashabbusi bilan Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi (MTRK) hamda O'zbekiston Milliy media birlashmasi hammuassisligida, joriy yilning 12-fevralidan 2-martiga qadar **“Har bir serial – bir missiya”** nomli milliy seriallar tanlovi e'lon qilindi.

Tanlovda ishtirok etish uchun **MTRK** va **Milliy media birlashmasi** tizimidagi **8 ta** telekanallardan **jami 22 ta** arizalar qabul qilindi. Eng ko'p loyihalar **“Mahalla” telekanalidan – 8 ta va “Mening yurtim 5” telekanalidan – 5 tani tashkil etdi.**

Tanlov ishchi guruhi tomonidan dastlabki tahlillar o'tkazilib, natijada 6 ta loyiha to'liq, 9 ta loyiha esa shartli ravishda jami 15 ta seriallar ssenariy va sinopsislari Ekspertlar komissiyasiga ko'rib chiqish va xulosalar tayyorlash uchun taqdim etildi.

Ma'lumot uchun : (*“Ayol matonati” (20 qism), “Ena” (10 qism), “Kechikkan qasos”, “Maxsus bo'lim” (“Bir jinoyat izidan”) (20 qism), “Meni ehtiyot qil” (20 qism), “Musbatoy va manfiybek” (20 qism), “Musofirlar” (10 qism), “Nomus kuchi” (20 qism), “Oila siri” (20 qism), “Qayta tirilish” (20 qism), “Shukrona” (20 qism), “Uka” (20 qism), “Vatan fidoiylari” (20 qism), “Vijdon agentligi” (20 qism), “Yo'lbars” (20 qism)) seriallari.*

2025-yil 7-aprel kuni Ekspertlar kengashi yig'ilishi o'tkazildi. Unda **11 ta** loyiha g'olib deb topilib, **tanlovning keyingi bosqichiga o'tkazildi.**

Shu bilan birga, mart oyi davomida tanlov Nizom loyihasi ishlab chiqildi va barcha hamkor tomonlar o'rtasida kelishildi.

Joriy yilning 7-aprel kuni o'tkazilgan Kengash yig'ilishida Nizomni tasdiqlash uchun taqdim etish va tasdiqlanganidan so'ng amaliyotga joriy etish **to'g'risida qaror qabul qilindi.**

Ma'lumot uchun: *bugungi kunda Nizom Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan tasdiqlash uchun taqdim etilgan.*

Ijtimoiy himoya milliy agentligi bilan ikki tomonlama hamkorlik doirasida **ko'p qismli badiiy filmlar (seriallar) ishlab chiqarish tartibi va farmoyish** loyihasi ishlab chiqildi. **2025-yil 10-aprel kuni** qo'shma yig'ilish bayoni, hamkorlik doirasidagi boshqa hujjatlar hamda **5 ta badiiy film va 4 ta serial materiallari elektron va yozma shaklda mas'ullarga yetkazildi.**

Tanlov g'oliblari orasida **“Kechikkan qasos”** seriali adabiy ssenariysi Ekspertlar kengashi tomonidan **ma'qullandi va hozirda uni ishlab chiqarish uchun buyruq loyihasi tayyorlanib, tasdiqlanmoqda.**

Shuningdek, **“Musofir go'dak”, “Ena”, “Musbat va manfiy”, “Vatan fidoiylari” va “Shukrona”** seriallarining adabiy ssenariylari ham **Ekspertlar kengashiga taqdim etildi.**

Bundan tashqari, tanlovda g'olib deb topilgan **“Meni ehtiyot qil”, “Ayol matonati”, “Oila siri” va “Uka”** loyihalarining adabiy ssenariylarini tayyorlash jarayonini tezlashtirish maqsadida **MTRK va Milliy media birlashmasiga rasmiy xat yuborildi.**

Kinematografiya agentligi va **Ijtimoiy himoya milliy agentligi** o'rtasidagi hamkorlik doirasida **“Quyosh bolalari”, “Oyimtilla” va “Inson”** nomli seriallar **ijtimoiy himoya mavzusida tasvirga olinishi mo'ljallanmoqda.**

Shuningdek, 2025-yil 7-aprel kuni bo'lib o'tgan qo'shma yig'ilishda Ekspertlar kengashi xulosasiga asosan, **“Mening yurtim”** telekanali tomonidan taqdim etilgan **“Vijdon agentligi”** seriali **ijtimoiy himoya mavzusi bilan bog'liqligi inobatga olinib**, ushbu loyiha hamkorlik doirasidagi **seriallar tanloviga qo'shildi. Barcha materiallar Ijtimoiy himoya milliy agentligiga taqdim etildi.**

Yuqoridagilar bilan bir qatorda may oyi davomida **Istiqbolli ijodiy dasturlar bilan ishlash bo'limi** tomonidan **Kinoasarlarni yaratish** bo'yicha **me'yorlar loyihasi** ishlab chiqilib, muhokama va yuridik xulosa uchun **mutaxassislariga taqdim etildi.**

IX. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish va axborot xavfsizligini ta'minlash yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar

Agentlik va uni tizimidagi tashkilotlarda raqamli infratuzilmani rivojlantirish va axborot xavfsizligini ta'minlash yo'nalishida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1) korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish va korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish maqsadida 2025 yil yanvar-iyun oylari yakuni bo'yicha **64 tadan** iborat jadval asosida hisobotlar tuzilmoqda va ushbu hisobotlarni **«E-Anticor.uz»** elektron platformasiga to'liq kiritish choralari ko'rilmoqda;

2) Agentlik va tizimdagi tashkilotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish holatini o'rganish, tahlil qilish hamda **aniqlangan muammolarni bartaraf etish choralari ko'rilmoqda;**

3) Agentlik korporativ pochta-sini takomillashtirish hamda axborot xavfsizligidan kelib chiqib, **Ye-XATning** yangi versiyasi (*yexat-4.0.6.59-setup.exe*) o'rnatildi;

4) **“NIS.UZ”** idoralararo avtomatlashtirilgan axborot tizimiga tegishli statistik hisobotlar har chorak yakunlari bo'yicha kiritib borilmoqda;

5) Agentlik tomonidan **O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar portali (data.egov.uz)**ga joylashtirilgan ma'lumotlar **doimiy ravishda yangilab borilmoqda;**

6) Agentlikning dasturiy va apparat server qurilmalariga bo'lgan ehtiyoji aniqlanib kerakli qurilmalar olindi;

7) **“Kinonazorat.uz”** avtomatlashtirilgan axborot tizimida Agentlik tomonidan tadbirkorlik sub'ektlari bilan kinematografiya yo'nalishi bo'yicha olib boriladigan faoliyatda ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilishni nazarda tutuvchi **“Xavfni tahlil qilish” elektron tizimiga joriy etildi;**

8) Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik indeksi platformasiga ochiqlik bo'yicha Agentlik ma'lumotlari kiritildi;

9) Yagona huquqiy axborot almashish tizimi <https://htb.huquqiportal.uz/> portaliga ma'lumotlar doimiy kiritib borilmoqda.

X. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar

Joriy yilning yanvar-iyun oylari mobaynida Agentlikka jismoniy va yuridik shaxslardan jami **193 ta murojaat kelib tushgan**. Shundan, **57 ta** murojaat bevosita Agentlikka kelib tushgan hamda **136 ta** murojaat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan.

Agentlikka bevosita kelib tushgan **57 ta** murojaatlarning **19 tasi ijobiy** qanoatlantirilgan, **35 tasiga huquqiy tushuntirish** berilgan, **2 ta** murojaat hozirgi vaqtda o'rganib chiqilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan **136 ta** murojaatning **47 tasi ijobiy** hal etilgan, **83 tasiga huquqiy tushuntirish** berilgan, **3 tasi** tegishli bo'lmaganligi sababli rad etilgan, qolgan **3 ta** murojaat ijrosi yuzasidan o'rganish ishlari olib borilmoqda.

XI. Xalqaro aloqalarni rivojlantirish yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar

Joriy yilning **yanvar-iyun oylari** davomida xalqaro aloqalarni rivojlantirish yo'nalishida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. jahonning eng nufuzli 7 ta xalqaro kinofestivalida o'zbek kinoijodkorlarining ishtiroki ta'minlandi.

Jumladan, Agentlik buyurtmasiga ko'ra suratga olingan “Yakshanba” filmi Bangladeshda bo'lib o'tgan Dakka Xalqaro kinofestivalining Osiyo filmlari tanlovida “Eng yaxshi film” mukofotini hamda Hindistonda bo'lib o'tgan Eikhoigi Imphal Xalqaro kinofestivalida “Hakamlar hay'atining maxsus mukofoti” ni qo'lga kiritdi. Hindistonning GOA shahrida bo'lib o'tgan xalqaro kinofestivalda “House” badiiy filmi ishtiroki, 13–24 may kunlari Fransiyaning Kann shahrida o'tkazilgan 78-Kann xalqaro kinofestivalida agentlik delegatsiyasi ishtiroki, Hindiston davlatining Noida shahrida bo'lib o'tgan xalqaro “Global Festival of Journalism & AVGC” kino-festivalida “Mukammallik uchun” nominatsiyasi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Shuningdek, Turkmanistonda IV “Qo'rqut ota” kinofestivalida Muzaffarxon Erkinovning “Maxtumquli” tarixiy-badiiy filmi “Eng yaxshi film” nominatsiyasida “Gran-Pri” va rejissyor Nurulla Narzullaevning “Oy borib, omon qaytganlar” hujjatli filmi kinofestival maxsus mukofoti bilan taqdirlandi;

Yuqoridagilar bilan bir qatorda joriy 11–15-iyun kunlari Qirg'izistonning Bishkek shahrida 130 dan ortiq davlatlar ishtirokida bo'lib o'tgan xalqaro kinofestivalda Agentlik direktori o'rinbosari Alisher Xadjaev boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi ham ishtirok etib, “Bahorni quvib” badiiy filmining maxsus taqdimoti o'tkazildi.

2. Xorijiy xizmat safarlari bo'yicha:

1) Rossiya Federatsiyasining Xanti-Mantiskiy shahrida bo'lib o'tgan **XXIII-Dux Ognya** kinodebyut Xalqaro kinofestivalida “O'zbekfilm” direktori boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi ishtirok etdi;

2) joriy yilning 30 yanvar – 3 fevral kunlari Venriyaning Budapesht shahrida “O'zbek kinosi kunlari” tashkil etildi. Unda Agentlik direktori Sh.Rizaev boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi o'zbek kinolarining eng yorqin kinoasarlarini vengriyalik muxlislarga taqdim etishdi. Shuningdek,

“O‘zbek kinosi kunlari” doirasida Vengriya milliy kino instituti bilan hamkorlikda **“Armen Vamberi va mulla Is’hoq”** filmini hamkorlikda suratga olish yuzasidan kelishib olindi;

3) joriy yilning **12-14 mart kunlari** Qirg‘iziston Respublikasining poytaxti Bishkek shahrida **“O‘zbek kinosi kunlari”** tashkil etildi. Tadbirda **“Bir kuni Samarqandda”** filmi premerasi bo‘lib o‘tdi.

Ma’lumot uchun: joriy yilning 29-mart kuni O‘zbekiston Milliy kino san’ati saroyida Kinematografiya agentligi va Qirg‘iziston Kinematografiya departamenti hamkorligida suratga olingan **“Bir kuni Samarqandda”** badiiy filmining katta premerasi bo‘lib o‘tdi.

Namoyishda Kinematografiya agentligi direktori Shuhrat Rizaev, **Qirg‘iziston Respublikasi Madaniyat, axborot va yoshlar vazirligi huzuridagi Kinematografiya departamenti direktori Ulan Adamaliev**, **“Kirkiztasmasi”** davlat korxonasi direktori Almaz Tulekeev, filmning ssenariy muallifi va rejissyori Naizabek Sydykov, kinoijodkorlar, tomoshabinlar hamda OAV vakillari ishtirok etishdi.

Namoyish avvalida Qirg‘iziston Respublikasi Madaniyat, axborot va yoshlar vazirligi huzuridagi Kinematografiya departamenti direktori Ulan Adamaliev hamda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi direktori Shuhrat Rizaev **ikki mamlakatda ishlab chiqarilayotgan filmlarning prokat aylanmasini kengaytirish va yangi loyihalar bo‘yicha hamkorlikni mustahkamlash maqsadida memorandum imzoladilar.**

4) joriy yilning **11-16 aprel kunlari “Water Color”** kinostudiyasi tomonidan O‘zbekistonda tug‘ilgan mashhur xonanda **Anna German hayoti** va ijodi haqida hamkorlikda hujjatli film suratga olish taklifi bildirilganligi sababli kinostudiya vakillari bilan suratga olish jarayonlarini muhokama qilish maqsadida **“O‘zbekfilm” kinokonserni”** davlat unitar korxonasi direktori v.b. **B.Muhamedov** boshchiligidagi delegatsiya xizmat safari bilan Polsha Respublikasining Varshava shahrida bo‘lishdi;

5) joriy yil **14-21 aprel kunlari Yaponiyaning Tokio shahrida** bo‘lib o‘tgan **“Jadidlar harakati namoyandasi Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yillik yubileyi munosabati”** bilan tashkil etilgan xalqaro ilmiy seminarda Agentlik direktori qatnashdi. Tadbir doirasida bokschi Bahodir Jalolov faoliyatiga bag‘ishlangan **“Yengilmas: Tokioga yo‘l”** va **“Tirik tarix”** dasturidan o‘rin olgan **“Sakura ifori”** filmlarini hamkorlikda suratga olish yuzasidan yaponiyalik kinoijodkorlar bilan muzokaralar olib borildi;

6) joriy yil **21-24 aprel kunlari Moskva shahrida** bo‘lib o‘tgan **“Yevrosiyo kinematografiya san’ati akademiyasi”** va **“Ochiq Yevrosiyo kino mukofotlari”** ning rasmiy taqdimotida ishtirok etish uchun **direktor o‘rinbosari A.Xadjaev** boshchiligidagi agentlik delegatsiyasi **Rossiya Federatsiyasida** bo‘lishdi;

7) **15-18 aprel kunlari O‘zbekiston milliy kinofondi** delegatsiyasi o‘zaro hamkorlik va tajriba almashish uchun **“GosFilmFond”** taklifi munosabati bilan **Sh. Norov** boshchiligidagi delegatsiya xizmat safari bilan **Rossiya Federatsiyasida** bo‘ldi;

8) joriy yilning **1-4- may kunlari Hindistonning Mumbay shahrida** o‘tkazilgan **Waves (Butunjahon audiovizual ko‘ngilochar) sammitida** S.Rajabov va G‘.Hoshimov agentlikning ishtiroki ta’minlandi;

9) joriy yilning **18-iyun kuni** Turkiyaning Antaliya shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston va Turkiya o'rtasida Hukumatlararo komissiyaning madaniyat sohasidagi quyi qo'mitasining ikkinchi majlisida Agentlik direktori o'rinbosari Alisher Xadjaev ishtirok etdi;

10) joriy yilning **18-21 iyun** kunlari Rossiya Federatsiyasida o'tkazilgan "Sankt-Peterburg Xalqaro iqtisodiy forumi"da Agentlik vakillari ishtiroki ta'minlandi.

3. O'zbekistonda xorijiy davlatlarning kino kunlarini tashkil qilish bo'yicha:

1) joriy yilning **14-16 mart kunlari** O'zbekiston Milliy kino san'ati saroyida **Kinematografiya agentligi va Hindistonning O'zbekistondagi elchixonasi bilan hamkorlikda "Hind kinosi kunlari"** o'tkazildi.

***Ma'lumot uchun:** hind kinosi yulduzi **Abhishek Bachchan** joriy yilning 13 mart kuni **"Hind kinosi kunlari"** doirasida Toshkentga keldi. O'zbekiston Milliy kino san'ati saroyida **14 mart** kuni Abhishek Bachchan, Hindistonning O'zbekistondagi elchisi Smita Pant, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi direktori Shuhrat Rizaev, Milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi rahbari Furqat Usmonov hamda delegatsiya a'zolari ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi. Mehmonlar dastlab yangi ekspozitsiyalar bilan boyitilgan O'zbekiston kino san'ati muzeyini tomosha qilib, o'zbek kinematografiyasining o'tmishi va bugungi rivoji haqida batafsil ma'lumotga ega bo'ldilar.*

Uchrashuv davomida O'zbekiston va Hindiston hamkorligida suratga olinayotgan kino loyihalarining keyingi bosqichini amalga oshirish, o'zaro tajriba almashish va kelgusidagi hamkorlik masalalari muhokama qilinib, tegishli kelishuvlarga erishildi.

*Shu kunning o'zida O'zbekiston Milliy kino san'ati saroyida **"Hind kinosi kunlari"** tadbirlarining rasmiy ochilish marosimi o'tkazildi va Hindiston kino ijodkorlari tomonidan suratga olingan filmlar namoyishiga start berildi.*

Mashhur aktyor Abhishek Bachchan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Axborot xizmati uchun maxsus intervyu berdi. U o'z intervyusida O'zbekistonga ikkinchi bor kelgani, bu unga buyuk sharaf ekanini ta'kidlab, o'zbek kinosini rivojlantirish, uning boy tarixini asrab-avaylash va butun dunyoga tanitish borasida Prezident tomonidan olib borilayotgan sa'y-harakatlarni e'tirof etdi. Shuningdek, o'zbek aktyorlarini o'z filmlariga taklif etish hamda o'zi ham o'zbek filmlarida rol ijro etish istagini bildirdi.

2) joriy yilning **24-28 mart kunlari** Agentlik hamda Fransiyaning O'zbekistondagi elchixonasi hamkorligida **"Fransuz tili filmlari festivali"** o'tkazildi;

3) **15 may kuni** Xiva shahrida **"Koreya filmlari festivali"** doirasida namoyish qilinadigan filmlar ko'rib chiqilib, Ekspertlar kengashi bayonnomasi asosida javob xati **yuborildi hamda kino kunlari tashkil etildi.**

4) **29-31- may kunlari** Toshkent shahrida bo'lib o'tayotgan **"Rossiya madaniyat kunlari"** tadbiri doirasida **"Rossiya kinosi kunlari"** ham o'tkazilmoqda.

4. Xalqaro muzokaralar bo'yicha:

1) joriy yil davomida davlat buyurtmasi asosida xorijiy kinoijodkorlar bilan hamkorlikda 2 ta badiiy film (*"Eshelon na Samarkand"* (Angliya kinoijodkorlari bilan hamkorlikda), *"Meni kutgil"* (*"Jdi menya"*) (Xitoy kinoijodkorlari bilan hamkorlikda) va 1 ta hujjatli filmni (*"Qardoshlik g'alabasi"* (Qirg'iziston va Turkiya kinoijodkorlari bilan hamkorlikda) suratga olish bo'yicha muzokaralar olib borildi.

2) 2024 yildan 2025 yilga o'tgan 2 ta (*"Tirik tarix"* filmlar turkumidan *"Yulduzlar shu'las: Jomiy va Navoiy"* nomli tarixiy-badiiy film (Tojikiston bilan hamkorlikda) va *"Mulla Nasriddin: og'ir kunlarda hamroh"* (Ozarbayjon bilan hamkorlikda) kinomahsulot xorijiy investorlar hisobidan ko-produksiya shaklida amalga oshirish bo'yicha muzokaralar olib borildi.

3) joriy yil davomida xorijiy hamkorlar bilan birgalikda *"Tirik tarix"* dasturiga kiritilgan, jami 5 ta, shundan, 1 ta badiiy film (*"Sehrlil ko'za"* (Rossiya bilan hamkorlikda), 3 ta badiiy-publitsistik (*"Xerman Vamberi va Mulla Is'hoq"* (Vengriya bilan hamkorlikda), *"Buxoro marvaridi"* va *"O'zbekiston arxeologik yodgorliklari durdonalari"* (Rossiya bilan hamkorlikda) va 1 ta tarixiy-badiiy filmni (*"Shahobiddin Marjoniy"* (*"Muallim"*) (Tatariston (Rossiya) bilan hamkorlikda) suratga olish choralari ko'rilmogda.

4) Joriy yil 30 aprel kuni Yaponiyalik kinosohasi vakillari bilan *"Renessans kino uyi"*da uchrashuv tashkil etilib, unda jahonda e'tirof etilgan Yaponiya filmlarining O'zbekistonda namoyishi borasida muzokaralar olib borildi.

5) Tirik tarix dasturida Turkiyalik hamkorlar bilan suratga olinishi rejalashtirilgan *"Turkistonlik bahodirlar"* filmi uchun Turkiyaning *"KREAFly PROJE REKLAM PRODUKSIYON LTD"* kompaniyasi bilan hamkorlik qilishga kelishildi.

6) Joriy yil 16 aprel kuni jahonning nufuzli Al-Jazeera media kompaniyasi vakillari bilan Agentlik delegatsiyasi o'rtasida uchrashuv tashkillashtirilib, unda kelgusida kino sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish borasida kelishuvga erishildi.

7) Joriy yil 4 aprel kuni Kinematografiya agentligi vakillari Eron Islom Respublikasi Kino muzeyi direktori Fotima Muhammadiy bilan uchrashuv o'tkazildi. Unda O'zbekistonda *"Eron kinosi kunlari"* va Eronda *"O'zbek kinosi kunlari"*ni tashkil etish va an'anaviy tarzda o'tkazib kelinadigan *"Navro'z"* xalqaro kinofestivalini kelgusi yil Toshkent shahrida o'tkazish masalasi muhokama qilindi.

Shuningdek, joriy yilning 20 mart kuni turkiyalik mashhur prodyuser Timur Savchi bilan o'zbek kinoijodkorlari o'rtasida ijodiy uchrashuv (master-klass) bo'lib o'tdi.

Timur Savchi o'zining *"Muhtasham 100 yil"* filmi bilan o'zbek teletomoshabinlarining ko'nglidan joy olgan prodyuser hisoblanadi. U boy tajribasi asosida kino olamining sir-asrorlari, xalqaro muvaffaqiyat sirlari hamda prodyuserlik faoliyatining nozik jihatlari haqida so'zlab berdi.

Uchrashuv kino san'ati ixlosmandlari va mutaxassislar uchun katta qiziqish uyg'otdi. Tadbir davomida Timur Savchi xalqaro muvaffaqiyatga erishish sirlari, tarixiy seriallar yaratish jarayoni hamda prodyuserlik ishining nozik jihatlari haqida o'z fikrlarini bildirib, kelgusida o'zbek kinoijodkorlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ham e'tirof etdi.

Joriy yilning 9-iyun kuni “O‘zbekfilm” kinokonserni binosida Tojikiston Respublikasining O‘zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Abdujabbor Rahmonzoda hamda Agentlik direktori Shuhrat Rizaev ishtirokida uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Uchrashuv davomida ikki davlat o‘rtasidagi madaniy aloqalar borasida erishilgan yutuqlar ta’kidlanib, kelgusida amalga oshiriladigan rejalar yuzasidan fikr almashildi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda Kinematografiya agentligida joriy yilning 15-iyun kuni “Samarqandga yo‘l olgan eshelon” romani muallifi, yozuvchi Guzel Yaxina bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi hamda 16-iyun kuni Germaniyaning nufuzli xalqaro kitob yarmarkasi — Frankfurter Buchmesse prezidenti va bosh direktori Yurgen Boos (Juergen Boos) ishtirokida uchrashuv tashkil etildi.

XII. Tizim kadrlari bilan ishlash, ularning samarali faoliyatini tashkil etish yo‘nalishida amalga oshirilgan ishlar

Joriy yilning yanvar-iyun oylari davomida Agentlik markaziy apparatidagi **11 ta vakant** lavozimlarga Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining “Davlat fuqarolik xizmati vakant lavozimlarining yagona ochiq portali” (***vacancy.argos.uz***) orqali tanlovlar tashkil qilinib, ushbu o‘tkazilgan ochiq va mustaqil tanlovlar orqali **8 ta** lavozimga tanlov g‘oliblari aniqlandi hamda ular bilan mehnat shartnomalari tuzilib **“Yagona milliy mehnat tizimi”** idoralararo dasturiy-apparat kompleksiga to‘liq kiritildi. Hozirgi kunda Agentlik markaziy apparatida **1 ta** vakant lavozim **uchun tanlov jarayonlari** bo‘lib o‘tdi va ayni kunda suhbat bosqichi kuni belgilanmoqda.

Agentlik Markaziy apparatida gender tengligini ta’minlash maqsadida Direktorning Davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchisi lavozimiga “Davlat fuqarolik xizmati vakant lavozimlarining yagona ochiq portali” (***vacancy.argos.uz***) orqali tanlovlar tashkil qilinib Turdiboeva Dilfuza Shamsutdinovna hamda Ijro intizomi va devonxona bo‘limi yetakchi mutaxassisligiga To‘raqulova Firuza Baxritdinovnalari ishga qabul qilindi.

Shuningdek, Agentlik markaziy apparati xodimlariga doir barcha hujjatlar (*xodimlarning ma’lumotlari, buyruqlar, ish haqi tabeli*) **“hrm.argos.uz” elektron tizimida yuritilmoqda.**

Bundan tashqari joriy yilning yanvar-iyun oylari davomida Agentlikning markaziy apparati davlat xizmatchilarining barchasi sohalar kesimida Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan tashkil etilgan masofaviy malaka oshirish **kurslarida (*ilm.argos.uz* va *edu.argos.uz* saytlari orqali) ishtirok etishi ta’minlandi.**

Tanlov jarayonlarining o‘tkazilishi bo‘yicha doimiy ravishda Agentlikning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari va rasmiy veb-saytiga ma’lumotlar qo‘yilib borilmoqda (**<https://t.me/uzbekkinopress/24921>**, **<https://t.me/uzbekkinopress/24993>**). May oyi davomida Agentlik huzuridagi **“O‘zbekiston milliy kinofondi” DM muassasasiga, “Qoraqalpochkino” agentligi** va **“Do‘rmon kino ijodkorlar uyi” DUKlarga** yangi rahbarlar tayinlandi.

Kinematografiya agentligi rahbariyatiga zaxira kadrlar ro‘yxati shakllantirilib, **hrm.argos.uz <https://hrm.argos.uz/#/plan/reseve>** platfirlmasiga to‘liq kiritildi va bu to‘g‘risida Madaniyat vazirligiga ma’lumot berildi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda joriy yilning **I yarim yili** davomida kino sohasida samarali faoliyat yuritib kelayotgan soha vakillari va ijodkorlarning mehnatini etirof etish va mukofotlash

maqsadida O'zbekiston Kinoarboblari ijodiy uyushmasi bilan birgalikda **15 nafar** davlat mukofotiga nomzodlar ro'yxati shakllantirilib, Madaniyat vazirligiga taqdim etildi.

XIII. Agentlikning Moliya-iqtisod va buxgalteriya hisobi yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar

Agentlik huzuridagi **Badiiy va Ekspertlar kengashi qarorlari** asosida ishlab chiqarishga tushiriladigan filmlarni moliyalashtirish yuzasidan **Joriy yilning yanvar- iyun oylari davomida** davlat buyurtmasiga asosan milliy kino mahsulotlarini yaratish uchun kinostudiyalar bilan **48,6 mlrd so'm** qiymatidagi shartnomalar tuzilib, **bajarilgan ishlar hajmidan kelib chiqib, 40,7 mlrd so'm miqdoridagi mablag'lar sarflandi.**

Ma'lumot uchun: jami **49 ta** (**18 ta** badiiy filmlar, **19 ta** hujjatli film, **1 ta** Badiiy publitsistik film, **2 ta** qisqa metrajli film, **7 ta** animatsion film, **2 ta** ijtimoiy roliklar) ishlab chiqarish uchun xarajatlar amalga oshirildi.

XIV. Agentlikning idoraviy mansub tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar

Joriy yilning o'tgan davri davomida Agentlikning idoraviy mansub tashkilotlari tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1) "O'zbekiston Milliy kino san'ati saroyi" Davlat unitar korxonasi tomonidan yanvar-iyun oylari davomida **22 ta milliy film** ("Uch qahramon", "Tok urgan kuyov", "Kallaxona love", "G'urur", "Istanbul operatsiyasi", "Uyga qaytish", "Adolat", "Sevdo", "Qari qiz", "Qutqaruvchi", "Pochti Macho" va "Qahramonning qaytishi", "Arvoh qiz", "Qovun o'g'rilari", "Bir kuni Samarqandda", "Garov", "Chimildiq", "Azartnik", "Umida" (Fudziyama haqida tush), "Jigar 2", "Daydi shamol" va "Cho'liq") hamda **xorijiy kinostudiyalar tomonidan ishlab chiqarilgan 3 ta film** ("Jigar Hindistonda", "Olov" va "Reketir") namoyishlari bo'lib o'tdi.

Shuningdek, Saroyda **16-18-aprel kunlari** Germaniyaning O'zbekistondagi elchixonasi bilan hamkorlikda **Bolalar va o'smirlar uchun "Shum bola" nomli 12-nemis tilidagi** filmlar festivali, **1-2-iyun kunlari** bolajonlarimiz uchun yangi **"Musbatoy va Manfiybek"** animatsion filmi va **"Sehrli qalpoqcha"** badiiy filmining bayramona namoyishlari o'tkazildi.

Ma'lumot uchun: Festival doirasida **"Gnomlar: Yangi qalpoqlar, Yangi topshiriqlar 2", "Shkola magicheskiy zverey 3", "Pobiditeli", "Gnomi: Novyy shapki, novaya missiya 2", "Sehrli hayvonlar maktabi 3", "Marsdan salomlar", "Kosmosdan ovoz", "Kosmosdan ovoz", "Privet s marsa", "Samaya krasivaya devchonka v mire" va "Dunyodagi eng go'zal qiz"** kabi filmlarning o'zbek - rus tillarida dublyaj orqali namoyish etildi.

14-16 aprel kunlari mashhur **amerikalik aktyor Dastin Hoffman** ijodiga bag'ishlangan **maxsus film kunlari** o'tkazildi.

24-30 aprel kunlari fransuz kino afsonasi **Katrin Denevning** ijodiga bag'ishlangan **maxsus haftalik tashkil** etildi.

ma'lumot uchun: ushbu haftalikda **"Kunduzgi go'zallik", "Roshofordan qizlari", "Tristana", "Afrikalik" va "Indochina"** filmlari rus tilida namoyish etildi. Bu tadbir kino ixlosmandlari uchun **Fransiya kinematografiyasi bilan yaqindan tanishish imkonini yaratdi.**

Joriy yilning 4-may kuni Kinematografiya agentligi buyurtmasiga binoan (*"Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasi"* tomonidan suratga olingan) **"Ayollar daftari"** hujjatli filmining, 8-may kuni Kinematografiya agentligi buyurtmasiga binoan Davlat xavfsizlik xizmati bilan hamkorlikda (*"Yoshlik"* kinostudiyasi tomonidan suratga olingan) **"Daydi shamol"** badiiy filmining premerasi bo'lib o'tdi.

Shuningdek, 1–10 may kunlari **"O'zbekiston Milliy kino san'ati saroyi"** da **"Xotira va qadrlash kuni"** munosabati bilan qator bepul kinonamoyishlar o'tkazildi.

Kinosaroyda tashkil etilgan **"Retro klub"** da o'zbek va jahon kino san'ati arboblari tomonidan yaratilgan filmlar muntazam namoyish etib borilmoqda.

Ma'lumot uchun: bugunga qadar *"Retro filmlar"* namoyishlar zalida jahon va o'zbek kinosining mumtoz namunalaridan hisoblangan **41 ta badiiy va musiqiy filmlar** (*"Sladkaya jizn"* (Italiya), *"Vchera, segodnya, zavtra"* (Italiya), *"Podsolnuxi"* (Italiya), *"Ochi chernye"* (Italiya, SSHA), *"Zloutmyshlenniki, kak vseгда, ostalis neizvestny"* (Italiya), *"Segodnya, zavtra, poslezavtra"* (Italiya, Fransiya), *"Djindjer i Fred"* (Italiya), *"Alibobo va qirq qaroqchining sarguzashtlari"* (Hindiston bilan hamkorlikda), *"Sevgi afsonasi"* (Hindiston bilan hamkorlikda), *"Ulug'bek yulduzi"*, *"Vatan o'g'illari"*, *"Erkak va ayol"* (Fransiya), *"Sherbur soyabonlari"* (Fransiya), *"Xirosima, mening sevgim"* (Fransiya), *"Erkak va ayol: 20 yildan keyin"* (Fransiya), *"Italiyada nikoh"* (Italiya, Fransiya), *"Chaqaloq"* (AQSh), *"Katta shahar chiroqlari"* (AQSh), *"Yangi zamonlar"* (AQSh), *"Buyuk diktator"* (AQSh), *"Kelinlar qo'zg'oloni"* (O'zbekfilm), *"Mahallada duv-duv gap"* (O'zbekfilm), *"Shum bola"* (O'zbekfilm), *"Maftuningman"* (O'zbekfilm), *"Suyunchi"* (O'zbekfilm), *"Ya podaryu tebe gorod"* (O'zbekfilm), *"Gde ty moya Zulfiya"* (O'zbekfilm), *"Istoriya Xatiko"* (Yaponiya), *"Legenda o Naroyame"* (Yaponiya), *"Rosimyon"* (Yaponiya), *"Romeo va Julietta"*, *"Hamlet"*, *"Fanfan-Lola"* (1952) (Fransiya), *"Katta manevrlar"* (1955) (Fransiya), *"Xavfli aloqalar"* (1959) (Fransiya), *"Kasablanka"* (AQSh), *"Vertigo"* (AQSh), *"Gaz nuri"* (AQSh), *"Kabare"* musiqiy melodramasi, *"Bu Jazning barchasi"* musiqiy dramasi va *"Taksi haydovchisi"* dramasi) namoyishlari bo'lib o'tdi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda joriy yilning 24-25-may kunlari **"So'nggi qo'ng'iroq"** tadbirlari doirasida **"Odina"**, **"Maktab hayotim"**, **"Uyga qaytish"**, **"Ishq va anduh"** kabi badiiy, **"Ko'zgu"**, **"Ona"**, **"Rang va ohang"** nomli qisqa metrajli va **"Novda"**, **"Birinchi avgust"** kabi retro filmlarning bepul namoyishlar tashkil etildi.

Bundan tashqari, joriy yilning 4-iyun kuni o'zbek teatri va kinosi durdonasi, O'zbekiston xalq artisti **Lutfixonim Sarimsoqova tavalludining 130 yilligiga** bag'ishlangan xotira kechasi bo'lib o'tdi. Xotira tadbirida ulug' san'atkor hayoti va faoliyati haqidagi hujjatli filmlar namoyish qilindi.

2) "O'zbekfilm" kinokonserni" Davlat unitar korxonasi tomonidan:

- **"Tirik tarix"** filmlar turkumiga kiritilgan **"Ulug' Amir va donna Mariya"** badiiy filmining so'nggi grafika ishlarini amalga oshirish davom etmoqda;

- **"O'zbek arsloni"** badiiy filmi ssenariysiga Milliy kengash tomonidan bildirilgan takliflar asosida o'zgartirishlar kiritilmoqda;

- **"Mulla Nasriddin"** filmining (Ozarbayjon bilan hamkorlikda) xarajatlar smetasi ma'qullanganidan so'ng shartnoma imzolash rejalashtirilmoqda;

- **"Yulduzlar shu'las. Jomiy va Navoiy"** tarixiy-badiiy filmi suratga olish ishlari tayyorgarlik davri bo'yicha xarajatlar smetasi tasdiqlanib, pul mablag'i moliyalashtirilgandan so'ng amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda;

- **“Sehrli ko‘za” ertak filmining** (Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlikda) adabiy ssenariysini takomillashtirish hamda o‘zgartirishlar kiritish, shu jumladan, rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish ishlari olib borilmoqda.

3) “Yoshlik” kinostudiyasi DUK tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- **“Uyga qaytish”** - badiiy filmining montaj va ovozlashtirish ishlari yakunlanib, Agentlikning Badiiy kengashiga taqdim etildi va premerasi o‘tkazildi. Ushbu film Badiiy kengash tomonidan qabul qilindi hamda Kinofond DMga topshirildi;

- **“Daydi shamol”** - badiiy filmini suratga olish ishlari yanvar-fevral oylarida tamomlanib, fevral-mart oylarida montaj, grafika va ovozlashtirish ishlari yakunlanib, Agentlikning Badiiy kengashiga taqdim etildi va **6 may kuni yopiq namoyishi** hamda 8 may kuni filmning katta premerasi o‘tkazildi. Ushbu film Badiiy kengash tomonidan qabul qilindi hamda Kinofond DMga topshirildi;

- **“Zarra” va “Pochta”** nomli qisqa metrajli filmlarni suratga olish ishlari yakunlanib, Agentlikning Badiiy kengashiga taqdim etishga tayyorlandi;

- oilaviy zo‘ravonlik mavzusidagi **“Tarsaki” va “Ayol”** nomli ijtimoiy roliklar ishlab chiqarilib Agentlik badiiy kengashiga taqdim etildi.

4) “Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasi” DUK tomonidan “Yangi O‘zbekiston kinosolnomasi” kinojurnalining **6 ta** soni, “Vali G‘afurov. Igna bilan yozilgan asar” nomli 2 qismli hujjatli film, “Qardoshlik. Dunyoni birdamlikka chorlagan muloqot” nomli 2 qismli hujjatli film, “Maxbora ona simfoniyasi” nomli 2 qismli hujjatli film, “Hamroh” nomli 1 qismli hujjatli film yakunlanib, Badiiy kengash muhokamasiga topshirildi.

5) “O‘zbekiston milliy kinofondi” Davlat muassasasi tomonidan turli yo‘nalish va janrlardagi jami **484 ta film** HARD diskiga yozilib, murojaat qilgan tashkilotlarga taqdim etildi. Shuningdek, **20 ta hujjatli film** (1. “Xavfli hudud, Yangi O‘zbekiston kinosolnomasi 11-son”, 2. “Tadbirkorlik. Katta sakrash”, 3. “Yangi O‘zbekiston kinosolnomasi 10-son”, 4. “Silk road Samarkand”, 5. “Yangi O‘zbekiston kinosolnomasi 12-son”, 6. “Ma‘rifatga intilib (Zamonamiz jadidlari)”, 7. “Jadid maorifi”, 8. “Iyul voqealari”, 9. “Quyoshga yaqin shoir (Tura Sulaymon)”, 10. Ayollar daftari (O‘zbek ayoli), 11. “Najot ta’limda (Zamonamiz qahramonlari)”, 12. “Alisher Navoiy”, 13. “Oy borib, omon qaytganlar”, 14. “Qutqaruvchi”, 15. “Yangi O‘zbekiston kinosolnomasi 1-son”, 16. “Yangi O‘zbekiston kinosolnomasi 2-son”, 17. “Yangi O‘zbekiston kinosolnomasi 3-son”, 18. “Yangi O‘zbekiston kinosolnomasi 4-son”, 19. “Vali G‘afurov. Igna bilan yozilgan roman”, 20. “Dunyoni birdamlikka chorlagan muloqot” (Qardoshlik) 2-qism) **va 10 ta badiiy film** (“Bahorni quvib”, “Kallaxona LOVE”, “Bahodir Yalangto‘sh”, “Yangi yil”, “Uyga qaytish”, “Paxta”, “Umida «Ninachi qanotlari uchun kuy» (Fudziyama haqida tush) (rus tiliga dublyaj qilingan va ingliz tiliga subtitrlangan)”, “Daydi shamol” badiiy film), **15 qismli 2 ta animatsion film** (“Musbatoy va Manfiybek”) **va 1 ta videorolik** (“Ayol”) **qabul qilib olindi.**

6) O‘zbekiston Milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi tomonidan **“Issiq non”, “Ibrat”, “Qo‘qon shamoli”, “Ilhaq”** badiiy filmlari hamda **“Islomxo‘ja”** nomli eng sara badiiy-publitsistik filmlarning ingliz tiliga subtitrlangan nusxalari <https://uzbekacademy.uz/oz/movie/index> platformasiga, **“Maxtumquli” va “Faridaning ikki ming qo‘shig‘i”** kabi milliy filmlar **Vkontakte** (<https://vkvideo.ru>) hamda **Odysee** (<https://odysee.com>) kabi dunyoning eng ommabop internet platformalariga joylashtirildi.

XV. Agentlik tizimi faoliyatini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar

Joriy yilning yanvar- iyun oylari davomida matbuot xizmati tomonidan **Agentlik faoliyatiga doir jami 1250 dan ortiq** material ommaviy axborot vositalarida e'lon qilindi.

Shundan, davlat va nodavlat MTRKA tarkibidagi “O‘zbekiston 24”, “Yoshlar”, “Mahalla”, “Dunyo bo‘ylab”, “Ma’naviyat va ma’rifat” hamda nodavlat “Renessans”, “Zo‘r Tv”, “Mening yurtim”, “Sevimli” va “LUX Tv” kabi **telekanallarda jami 160 dan ortiq** chiqishlar qilindi. Bunda, filmlar taqdimoti, yangi film va seriallar yuzasidan muloqotlar, yopiq premeralar, xorij kinoindustriyasi bilan hamkorlik tadbirlari, **“Kino kunlari”** keng yoritildi.

Shuningdek, Agentlik faoliyati va kelgusidagi rejalar xususida **2 ta** matbuot anjumani o‘tkazildi. “O‘zbekiston milliy Kino san’ati saroyi”da **2 ta** brifing o‘tkazildi. Respublikamizning yetakchi va yirik **kun.uz, daryo.uz, demokrat.uz, uza.uz, gazeta.uz, afisha.uz, darakchi.uz** kabi internet nashrlarida **53 ta** materiallar joylashtirildi. **“O‘zbekiston 24”, “Yoshlar”, “Oriyat Dono”** kabi radiolarda **27 ta** radioeshittirish tashkil etildi.

Shu bilan birga “Milliy tiklanish” ijtimoiy-siyosiy gazetasining 2025-yildagi 5-sonida **“Nega milliy kino san’ati mutasaddilari tomoshabinlikdan nariga o’tisha olmayapti?”** sarlavhasi ostida e’lon qilingan maqolaga tezkor raddiya, rasmiy munosabat chop etildi.

Bundan tashqari **Agentlik** faoliyat targ‘ibotiga oid jami **9 ta** videorolik yaratildi, Agentlikning **rasmiy veb-sayti, hamda instagram, telegram va feysbukdagi** sahifalarida **600 tadan ortiq** matn va videorolik shaklidagi materiallar joylashtirib borildi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda **“14-yanvar – Vatan himoyachilar kuni”, “8-mart – Xalqaro Xotin-qizlar kuni” va 9-may – Xotira va qadrlash kuni** munosabatlari, **“Zulfiyaxonim”, “Zahiriddin Muhammad Bobur”, “Alisher Navoiy” “Maxmudxo‘ja Behbudiy”** tavallud kunlari, **“Hind kinosi kunlari”, “Fransiya kinosi kunlari”, “Tirik tarix”, “Kinosolnoma”, “Ochiq eshiklar kuni”** tadbirlari keng targ‘ib qilindi. Ushbu tadbirlarning har birining targ‘ibotiga **50 dan ortiq** hamkor ommaviy axborot vositalarining ishtiroki ta’minlandi.

Ma’lumot uchun kiritilmoqda.